



O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Postda Ha nocty

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!



2025-yil 17-aprel
payshanba

№ 16 (4710)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz

TA'LIM – KELAJAK
POYDEVORI

2

NAZORATDAGI
SHAXSLAR
E'TIBORDA

8

XODIMALAR
BELLASHGANDA

18

TINCHLIK VA BARQARORLIK YO'LIDA



Qibray tumani janubi-g'arbdan Toshkent shahri, janubdan Yuqori Chirchiq, sharqdan Bo'stonliq, g'arbdan Toshkent tumanlari, shimoldan Qozog'iston Respublikasi bilan chegaradosh. Maydoni 0,56 ming km.kv bo'lib, 41 ming xonadonda 174 ming nafardan ortiq aholi istiqomat qiladi.

Hududda turli millat va elat vakillari tinch-totuv yashab kelmoqda. Bunda osoyishtalikni asrash yo'lida fidoyilarcha xizmat qilayotgan tuman ichki ishlar organlari xodimlarining salmoqli hissasi bor.



(Qibray tumani IIB faoliyati bilan 15-sahifada tanishasiz).

AMALIY MULOQOTLAR VA O'RGANISHLAR



Ichki ishlar vaziri o'rinbosari, general-mayor Davron Nazarmuxamedov boshchiligidagi ishchi guruh Farg'ona viloyatida afv etilgan 59 nafar shaxs bilan uchrashuv o'tkazib, otaliqqa olingan maktabda o'rganishlar olib bordi.

Farg'ona va Qo'qon shaharlarida vazir o'rinbosari o'tkazgan sayyor qabulda afv etilganlarning 5 nafari ish bilan ta'minlandi, 13 nafari o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida tegishli tartibda ro'yxatdan o'tkazildi, 26 nafariga ijtimoiy moslashtirish bo'yicha moddiy yordam ajratildi, 4 nafariga ID-karta rasmiylashtirib berildi. Barcha afv etilgan fuqarolar tibbiy

ko'rikdan o'tkazilib, yashash hududidagi mahalla raislari murabbiy sifatida birlashtirildi.

Ishchi guruh otaliqqa olingan Quva tumanidagi 4-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida o'rganish ishlarini amalga oshirdi.

Dastlabki o'rganishlar natijasida maktab binosining bir qismini seysmik va texnik jihatdan nosoz deb topilgani, zamon talablariga

javob bermasligi sababli to'liq kapital ta'mirlash, bir qismini rekonstruksiya qilish bo'yicha xulosa qilindi.

Shuningdek, vazir o'rinbosari tomonidan maktab infratuzilmasini, o'quvchilar uchun shart-sharoitlarni zamon talablari asosida yangilash, xavfsizlik uchun videokuzatuv kameralari va turniket moslamalarini o'rnatish, maktab atrofini o'rab olish kerakligi qayd etildi. Faollar zali, fizika, kimyo, biologiya laboratoriyalari, kasb-hunarga yo'naltirish xonasi, ixtisoslashgan maxsus fanlar, chet tili lingafon xonasi, saf maydoni, oshxona va yuvinish xonasi, qishki

hojatxonalarni barpo etish, o'quvchilarga tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini oshirish borasida bir qator vazifalar belgilab berildi.

Topshiriqqa muvofiq, ichki ishlar organlari ko'magida maktab hududida 800 ta manzarali gul va 170 ta daraxt ko'chatlari ekilib, maktab tomorqasi va uning atrofi obodonlashtirildi. Maktab oldidagi yo'l asfaltlanib, yo'l chiziqlari chizildi, panjara va devorlar ta'mirlandi, chiqindilar, nosoz asbob-anjomlar olib ketildi. Va ichki ishlar organlari tashabbusi bilan maktabga 200 dan ortiq elektron kitoblar, 10 dan ortiq uslubiy qo'llanmalar va boshqa materiallar beg'araz yetkazib berildi.

Maktab uslubiy va ta'lim-tarbiya jarayonida amaliy ko'mak ko'rsatish uchun IIV Farg'ona akademik litseyiga birlashtirilib, alohida dastur ishlab chiqilib, har haftada o'quvchilar uchun ichki ishlar organlari mas'ul xodimlari tomonidan mahorat darslari o'tkazib borilishi belgilandi.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.

TA'LIM – KELAJAK POYDEVORI

Bugungi kunda har tomonlama yetuk yoshlarni tarbiyalash, ularga zamonaviy bilim berish davlat va jamiyat oldidagi ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Ana shu maqsadda IIV otalig'idagi maktablarda davlatimiz rahbarining tegishli qaroriga asosan qator ishlar amalga oshirilyapti.

Xususan, IIV Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash departamenti, viloyat IIB va tuman IIB mutasaddilaridan iborat ishchi guruh tomonidan Navoiy viloyati Qiziltepa tumanida joylashgan 41-umumta'

lim maktabidagi axloqiy-psixologik muhit o'rganilib, darslarga sababsiz surunkali ravishda qatnashmayotgan o'quvchilar aniqlandi.

Voyaga yetmaganlarning sifatli ta'lim olishiga to'sqinlik

qilayotgan omillar tahlil qilindi. Xususan, bilim maskanida o'quvchilar uchun yaratilgan sharoitlar o'rganildi, sinfxonalar va ta'lim jihozlarning ahvoli ko'zdan kechirildi. Bu boradagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish choralari belgilab olindi. Shuning bilan bir qatorda, maktab o'quvchilariga kelgusidagi maqsadlarini aniqlab olishlari borasida tavsiyalar berildi.

O'rganishlar davomida IIV Navoiy akademik litseyi o'qituvchilari va o'quvchilari mazkur

maktab o'quvchilariga pozitiv ruh va ko'tarinki kayfiyat ulashishdi. Ayniqsa, ko'rgazmali harbiy-taktik mashg'ulotlar namoyishi ularda katta taassurot qoldirdi.

Maktab o'quvchilarining bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularni kasbga yo'naltirish, jismoniy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga ko'maklashish chora-tadbirlari ishchi guruhning kelgusi faoliyati rejasidan o'rin oldi.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.



ТАРИХИГА МУНОСИБ ИЖОД ҚИЛАЁТГАН ЖАМОА

Бугун одамлар матбуотдан узоқлашиб, виртуал оламга ўтиб кетмоқда. Ахборот узатишда ижтимоий тармоқлар, интернет сайтлари етакчилик қилмоқда. Аммо, қувончлиси, шундай вазиятда ҳам ўқувчиларини йўқотмаган, матбуотнинг кучини ҳис қилдираётган, долзарб чиқишлари билан газетани узоқ вақт қўлингизга олиб, яхши маънода мутолаа қилишга мажбур қилаётган нашрлар ҳам йўқ эмас. Фахр билан бемалол айтишимиз мумкинки, улардан бири – «Postda-На посту» газетасидир. Газета саҳифаларини варақласангиз, ушбу гапларим ҳавойи эмаслигига ўзингиз ҳам амин бўласиз.

Вақт ва имкон топдим дегунча, даврий нашрларни кузатиб, ўқиб бораман. Улар орасида эса, албатта, «Postda-На посту» газетаси ҳам бор. Мутолаа жараёнида ўз-ўзидан кўп нарсаси аён бўлади. Аввало, газета саҳифалари ранг-баранг. Унда бугунги ички ишлар органлари тизимида бўлаётган янгиликларни, ўзгаришларни, муаммолар ва уларнинг ечимини ҳам кўрасиз.

Газетанинг ҳар бир вилоятда муҳбири борлиги унинг катта ютуғи назаримда. Сабаби, энг чекка-чекка қишлоқ ва маҳаллаларда ҳам профилактика инспекторларидан тортиб, ҳудудий бўлинмалар ходимларининг хизмат фаолияти билан яқиндан танишасиз. Мақолалар мазмунан халқона, содда ва самимий услубда ёзилганлиги боис ёш, ўз ишининг моҳир устаси бўлган лейтенантнинг қаҳрамонлигию, 70 ёшга кирган полковникнинг ҳаёт йўли ҳақидаги мақолани ҳам мириқиб ўқийсиз. Митти ҳикоялар, адабий-бадий йўналишдаги чиқишлар шундай моҳирона сараланганки, ички ишлар органи ходимининггина эмас, ҳар бир ўқувчининг маънавий оламида бойитишга хизмат қилади.

Биргина мисол, газетанинг март ойидаги сонларидан бирида филология фанлари номзоди

Темир Қурбоннинг буюк шоиримиз Абдулла Ориповнинг «Аёл» шеърини бадий таҳлил қилиб бергани, унинг тарихи билан боғлиқ қизиқарли маълумотларни келтиргани ҳеч бир ўқувчини эътиборсиз қолдирмайди. Айтмоқчи бўлганим, газетада юртимиз ва дунёда рўй бераётган муҳим сиёсий воқеалар, мамлакатимиз тараққиётига дахлдор ислохотлар билан биргаликда бадий-адабий йўналишдаги чиқишлар ҳам шундай маромида ўрин олганки, ҳаммаси биргаликда нашрнинг ўзига хос композициясини ҳосил қилади. Бунда бош муҳаррирдан тортиб, таҳририятда ишлаётган дизайнерлар, масъул котиб ва Бобомурод Тошев, Радик Тумпаров, Камол Оллоёров, Шухрат Рўзиев, Сарвар Собиров, Адолат Файзиева, Гулноза Турғунбоева каби моҳир журналистларнинг катта ҳиссаси, фидойилиги ва заҳматлари бор, деб ўйлайман. Алқисса, бугун нашр 45 минг тиражлик сонда чиқмаётган бўларди. Бу ҳам узоқ йиллик самарали меҳнат ва ишонч маҳсулидир.

Яна бир яхши жиҳати шундаки, газета таҳририяти «Ҳа, энди нима қиламиз, одамлар ўзгаряпти, замон ўзгаряпти, қўлимиздан нима ҳам келарди?» деб ўтиргани йўқ. Яхши маънода замонга мослашмоқда. Газе-

танинг сайти ва телеграм каналини ҳам бирдек ривожлантириб, ижтимоий тармоқларда ҳам ўз мухлисларини топтоқда. «Postda» телеграм канали орқали ички ишлар органлари тизимида юз бераётган воқеаликлар, тизим ходимларининг фидойи меҳнатини қисқа-қисқа ахборот ва мақолалар орқали чиройли ёритмоқда. Аҳолимизни, жамоат жойларида ўзини ҳам, бошқаларни ҳам ҳурмат қилишга тарғиб этувчи, жасоратли бўлишга, огоҳликка ундовчи видеороликлар тайёрламоқда. Бу чиқишларни кузатар экансиз, таҳририятда профессионал кадрлар жамланганини ҳис қиласиз. Шу билан бирга, улар ўзининг аниқ йўли, мақсади ва позициясига эга эканини англайсиз ва бу назаримда, жуда тўғри йўл.

Нашрнинг ўқишли ва севимлилигига яна бир мисол келтираман. Узоқ йиллик кадрдон дўстларимдан бири ички ишлар органлари соҳасида хизмат қилади. Аммо қалбан адабиётга яқин одам. Матбуотни, бадий асарларни яхши таҳлил қила олади. Онда-сонда шу дўстим билан кўришиб ёки телефонда мулоқот қилсам, гап орасида «Postda» газетасидаги чиқишларда эсида қолган яхши-яхши мулоҳазали гапларни мисол қилиб келтириб қолади.



Хусан ЭРМАТОВ,
«Ishonch» ва «Ishonch-Доверие»
газеталари бош муҳаррири,
сенатор.

Бир куни ўша дўстимнинг туғилган кунини унинг уйига бордим. Китоб жавонига кўзим тушар экан, қатор қилиб тахлаб қўйилган «Postda-На посту» газетаси эътиборимни тортди. Билсам, дўстим ишхонасида газета ўқишга улгурмай қолар эканда, йиғиб уйига олиб келиб, дам олиш кунларида бир четдан ўқир экан. Ана газетани ҳурмат... Бу мисол ҳамкасбларимизнинг меҳнатига берилган энг яхши баҳо назаримда.

Бугун ана шу нашр 95 йиллик юбилейи арафасида эканини эшитиб жуда хурсанд бўлдим. Жамоа босиб ўтилган салкам бир асрлик тарихига муносиб ижод қилмоқда. Шундай экан, уларни, шу пайтгача таҳририятда меҳнат қилган ва ҳозирда кексалик гаштини сураётган жамики устоз журналистларни ушбу сана билан чин юракдан қутлайман. Таҳририят ходимларининг эзгу ва заҳматли ижод йўлида омад ҳамда зафарлар ёр бўлсин!

ГАЗЕТАМИЗНИ ХОРИЖИЙ САЙЁҲЛАР ҲАМ ЎҚИШАДИ



Туристларга сифатли хизмат кўрсатишда ва узоғини яқин қилишда юқори тезликда ҳаракатланувчи «Афросиёб» поездининг алоҳида ўрни бор.

Замон талабларига тўла жавоб берадиган «темир тулпор» вагонларида бизнинг газета ва журналларимиз ўқиш учун қўйилган. Мана бу суратлар-

да Россиянинг Саха (Якутия) Республикасидан келган туристлар «Postda-На посту» газетасини мутолаа қилаётганини кўришингиз мумкин.



XOTIRA UYG'ONSA GO'ZAL

DUNYOYIMNING BIR BURCHI SOG'INCH...

Inson hayoti kitobga o'xshaydi. Uning sahifalaridagi mazmun-mohiyatda nurlanib turgan insoniylik, fidoyilik, ezgulik umrning beiz ketmaganidan dalolat.

Bu yorug' olamdan o'tib ketgan bo'lsa-da, yaqinlari, farzandlari, hamkasblari qalbida, yodida ibratli hayot kitobi doim shu'lalanib turuvchi insonlar ko'p. Ichki ishlar organlarida uzoq yillar samarali xizmat qilgan, marhum iste'fodagi mayor Zokirjon Haydarov ham ana shunday insonlardan biridir.

1937-yilda Toshkent viloyati Bo'ka tumanida ishchi oilasida dunyoga kelgan Z. Haydarov Toshkent davlat xalq xo'jaligi universitetida ta'limni yakunlagach, biroz muddat shu tumandagi sug'urta kompaniyasida faoliyat olib borgan. Keyin ichki ishlar organlariga xizmatga kirib, dastlab Bo'ka, Piskent, Oqqo'rg'on tumanlari IIB tergov bo'limlarida ishlagan. Sohaga oid bilimlarini yanada boyitishni maqsad qilgan yosh xodim ichki ishlar organlarida xizmat qilish bilan bir qatorda, Toshkent davlat universitetida huquqshunoslik ixtisosligi bo'yicha tahsil olib, oliy dargohni imtiyozli diplom bilan tamomlagan.

Ziyrak va bilimdonligi, kamtar, xushfe'l hamda adolatparvarligi bilan hamkasblari hurmatini qozonib, xizmatga bo'lgan munosabati bilan rahbarlar nazariga tushgan mayor Zokirjon Haydarov 1976-yilda Toshkent tumani IIBda Davlat mulkini o'g'irlashga qarshi kurashish bo'limi boshlig'i lavozimiga tayinlanadi. U zimmasiga yuklatilgan vazifalarni har qanday vaziyatda to'kis bajarishni ko'zlab harakat qilgan, yurtimizda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashishga munosib hissa qo'shgan.

– Zokirjon Haydarov tizimning sir-asrorlarini yaxshi o'zlashtirgan, kerakli vaziyatda jo'yali maslahat bera oladigan yetuk mutaxassis

edi, – deydi iste'fodagi polkovnik Toir Orifjonov. – Yuz bergan holat va muammoning yechimini sinchiklab o'rganib chiqardi. Bu esa hamisha oldimizga qo'yilgan vazifalarning ortiqcha savollarga o'rin qoldirmay bajarilishiga asos bo'lardi. Unga befarqlik begona edi. Shu bois xizmatda yaxshi hamkasb, hayotda bag'rikeng, olijanob inson sifatida xotiramga muhrlanib qolgan.

Zokirjon Haydarov faoliyatida ilg'or ish tajribalarini qo'llash, jamiyatdagi turli illatlarga o'z vaqtida barham berishni xizmatining a'mo-



liga aylantira olgan. Va shu maqsad yo'lida sidqidildan qilgan mehnatlari qadr topib, qator medallar, faxriy unvonlar bilan taqdirlangan.

– Otam qanchalar mas'uliyati og'ir sohada ishlasa-da, bizdan bor

mehrini ayamagan, – deydi Barno Umarova. – Uning uyga qaytishini men, singillarim Nigora, Ra'no, ukam Jo'rabek mushtoq bo'lib kutib o'tirardik. Buni sezsa kerak-da, ko'pincha to'rttalimizni mashinaga o'tqazib, aylantirib kelardi.

Ishga otlanarkan, doim onamga «Bir kun kelmasam, indama, ikki kun kelmasam, indama, uchinchi kuni ishxonaga qo'ng'iroq qilarsan», deb tayinlab ketardi. Ota-onam bir-birini nihoyatda ardoqlar, biz juda baxtiyor oila edik. Biroq onamning kutilmagan vafot etishi hammamizga og'ir keldi. O'sha kezlar otam bor kuchi bilan ham ota, ham ona bo'lishga, ko'nglimizni cho'ktirmaslikka harakat qilgan. Undagi mehr tuganmas edi. Doim otam bizga o'nta ona mehrini bera oldi, deya maqtanib gapiraman. Aytgancha, nafaqat bizga, balki yaqinlari, ammalarim, amakilarim, xolam-u tog'alarimgacha mehr-oqibatli, hammani bir ko'zda yaxshi ko'rib, qo'li ochiqligi, bag'rikengligi bilan ko'nglini avaylardi. Otamning fazilatlarini eslasam, beixtiyor bolalikqa qaytaman, doim dunyoyimning bir burchida sog'inchi bo'y ko'rsatadi.

Zokirjon Haydarov sharaflari xizmatiga sadoqatini faqat o'zigagina xos fidoyilik bilan namoyon etib ulgurdi. Oila oshyonida farzandlariga og'ir kunlarda ham mehri, e'tibori bilan avaylab, chiroyli tarbiya bera oldi. Hayoti davomida «Yaxshilik qil, jahon yaxshilik olsin», degan aqidaga amal qilib, mazmunli yashadi. Bugun ham farzandlari, nabiralari, do'st-u birodarlari, hamkasblarining iliq xotiralarida alohida fazilat-u xislatlari sog'inchi va hurmat bilan yodga olinishi ana shunday saodatli umr sohibi ekanligidandir.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA,
o'z muxbirimiz.



Suratda: Zokirjon Almatov (markazda) Baxtiyor Hakimov (chapda) va Zokirjon Haydarovlar. (1975–1978-yillar.)

SOHAVIY XIZMATLARDA

QOIDALAR HAMMA UCHUN

Qarshi shahrida pasport-viza tizimi qoidalariga rioya etilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu yo'nalishdagi tadbirlarga faqat migratsiya xizmati xodimlari boshqa sohaviy xizmatlar vakillari, mahalla yetiligi ham jalb qilinayotgani o'z samarasini berayotir.

Joriy yilning o'tgan davrida o'tkazilgan nazorat kuzatuvlarida 571 nafar yurtdoshimiz, shuningdek, 12 nafar chet el fuqarosi va fuqaroligi bo'lmagan shaxs mavjud qoidalarni buzgani aniqlanib, ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirildi. Jumladan, xitoylik Vulazale Adahe mamlakatimizda bo'lish qoidasini buzgani uchun tegishli chora ko'rildi. Mehmenni noqonuniy yashashiga yo'l qo'ygan «Beglar»

mahallasida yashovchi xonadon sohibi ham jarimaga tortildi.

Muntazam ravishda tushuntirish ishlari olib borilayotganiga qaramay, ayrim fuqarolarning qoidalariga bepisand yoki loqayd munosabatda bo'layotgani achinarli hol. Misol uchun, fuqarolar R.Choriyev, Z.Abdullayeva pasportini yo'qotgani, X.Olimova pasportini o'z vaqtida ro'yxatga qo'ymagani, A.Hasanov esa amal qilish muddati o'tgan pasport bilan yurgani aniqlandi.

Bundan tashqari, Qarshi shahar IIOFMB Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'limi tomonidan 80326 nafar kishiga ID-kartalar berildi. 61099 nafar fuqaro xorijga chiqish biometrik pasportlari bilan ta'minlandi.

Choriyor MAHMUDOV,
podpolkovnik.

Qashqadaryo viloyati.



■ Республика Каракалпакстан

ПРОЯВЛЕНИЕ ГУМАНИЗМА

В соответствии с Указом Президента Республики Узбекистан «О помиловании группы лиц, отбывающих срок наказания, чистосердечно раскаявшихся в содеянном и твердо вставших на путь исправления» были помилованы 11 осужденных жителей Каракалпакстана.

Двое из них полностью освобождены от отбывания основного наказания, семеро – условно-досрочно, одному осужденному наказание заменено на исправительные работы, срок заключения еще одного сокращен.

После выхода Указа была проделана значительная работа по социальной адаптации помилованных лиц. Они прошли медицинское обследование, получили единовременное пособие, им оказана помощь в трудоустройстве, предоставлена правовая и психологическая поддержка.

Так, С. М. из Амударьинского района выделена материальная помощь для адаптации в обществе. И. К. из Кунградского района проходит курс лечения. Житель Чимбайского района Т. Ш. трудоустроен в фермерское хозяйство «Даулетбай».

– Не менее важна моральная поддержка. Поэтому за каждым



из помилованных закреплены наставники из числа представителей общественности, – отметил начальник отдела пробации Службы общественной безопасности МВД Республики Каракалпакстан подполковник Б. Уббиниязов.

Своей историей поделился и отец одного из помилованных, Т. С.:

– Несколько лет назад мой сын, 2003 года рождения, был осужден за кражу. Я тогда был сосредоточен на обеспечении семьи и, к сожалению, упустил момент. Мы все пережили тяжелое время. Он тоже страдал и на суде чистосердечно раскаялся, но было уже поздно. Недавно его помиловали. Сотрудники правоохранительных органов помогли оформить документы, побывали у нас дома, изучили условия проживания, пообещали помочь в решении бытовых вопросов. Я искренне благодарен за проявленную человечность. Сейчас моя задача – сделать все, чтобы мой сын стал достойным человеком и полезным членом общества.

Азамат АЛЛАМБЕРГЕНОВ,
подполковник.

«Маънавият ойлиги» доирасида Амударё тумани Ички ишлар бўлимида ўқувчи ёшлар ва уларнинг устозлари иштирокида «Очиқ эшиклар куни» ўтказилди. Унда ўқувчиларга туман Ички ишлар бўлимининг тарихи ва бугунги куни ҳақида маълумот берилди.



■ г. Нурафшан

«Книга – лучший друг». Под таким девизом прошла ярмарка в ГУВД Ташкентской области, на которой была широко представлена продукция крупнейших издательств и полиграфических предприя-

тий – новые издания правовой тематики, произведения узбекской и зарубежной литературы. Цель – дальнейшее повышение культуры чтения личного состава.

Соб. корр.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IIV AKADEMIYASIDA

«Kiberxavfsizlikni huquqiy ta'minlash» ixtisosligi bo'yicha ilmiy darajalar beruvchi kengash tashkil etildi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-yanvardagi «Raqamli texnologiyalar vositasida sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish sohasi uchun professional kadrlar tayyorlash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorida belgilangan «Kiberxavfsizlikni huquqiy ta'minlash» ilmiy ixtisosligini joriy etish bo'yicha vazifa ijrosini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369/7-sonli qarori bilan yuridik fanlar bo'yicha ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosliklari ro'yxatiga 12.00/16 – Kiberxavfsizlikni huquqiy ta'minlash ixtisosligi kiritildi.

IIV Akademiyasi huzurida ilmiy darajalar beruvchi DSc. 31/05.04.2025. Yu.25.03 raqamli ilmiy kengash tashkil etildi.

Endilikda Akademiyada quyidagi ixtisosliklar bo'yicha dissertatsiyalar himoyasi amalga oshiriladi:

12.00.02 – Konstitutsiyaviy huquq. Ma'muriy huquq. Moliya va bojxona huquqi;

12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi;

12.00.09 – Jinoyat protsessi. Kriminalistika, tezkor-qidiruv huquq va sud ekspertizasi;

12.00.14 – Huquqbuzarliklar profilaktikasi. Jamoat xavfsizligini ta'minlash. Probatsiya faoliyati;

12.00.16 – Kiberxavfsizlikni huquqiy ta'minlash.



ИИБ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА

ҒАЛАБА САРИ ҚАДАМ

Мамлакатимизда параспорт соҳасининг ривожлантирилиётгани, болалар машғулотларда ўз маҳоратларини ошириб боришлари учун етарли шарт-шароитлар яратиб берилаётгани ижобий самара бермоқда.

Айни кунда Косонсой туманидаги «Нурли маскан» мактаб-интернатида жисмоний тарбия фани ўқитувчилари бошчилигида параголбол, «5+5» парафутбол тўғараклари фаолият олиб бормоқда. Шунингдек, парадзюдо, енгил атлетика, шахмат ва шашка, паравелотрек каби спорт турлари бўйича тўғараклар ташкил этилган бўлиб, ўқувчиларга вилоят Олимпия ва паралимпия захиралари коллежининг малакали ўқитувчи ва мураббийлари томонидан машғулотлар олиб борилиши таъминланмоқда.

Ўқувчиларнинг юқори натижаларга эришишида жисмоний тарбия ўқитувчиси Алижон Абдуллажоновнинг ҳиссаси катта. Унинг педагогика соҳасидаги фаолияти туман Болалар ва ўсмирлар спорт мактабида бошланган бўлса-да, ушбу ўқув муассасасига келганига ҳам 10 йилдан ошибди. Бу вақт оралиғида мактаб-интернатдан спорт соҳасини танлаб, кўплаб битирувчилар олий ўқув юртига ўқишга қабул қилинди.

Мактабнинг 10-синф ўқувчиси Дилшод Турдалиев енгил атлетиканинг 100 ва 400 метрга югуриш йўналишида 3 йилдан буён республика миқёсида биринчиликни

қўлдан бой бермай келмоқда. У айни пайтда туман Болалар ва ўсмирлар спорт мактаби мураббийлари ҳамда устози Алижон Абдуллажонов билан биргаликда республика саралаш мусобақаларига тайёргарлик кўрмоқда. Ушбу мусобақадаги ғолиблик Дилшодбек учун Осиё мусобақаларига, сўнг Олимпиада ўйинларига йўл очади.

Мактабнинг собиқ ўқувчиси Соҳибжон Ҳакимжонов ўтган ўқув йилида «беш ташаббус олимпиадаси»да 400 ва 100 метрга югуриш бўйича республика босқичида фахрли ўринни эгаллаб, Наманган давлат университетига имтиёзли равишда ўқишга қабул қилинди. Шунингдек, парадзюдо бўйича олимпиаданинг республика босқичида совриндор бўлган Оллоберди Ҳусанов ҳозирда Андижон давлат университетиде таҳсил оляпти. Узунликка сакраш бўйича республика мусобақасида кучли учликдан жой олган Рустам Ашурматов ҳам жисмоний маданият йўналишида олий ўқув юрти талабаси.

– Ҳаёт синовлари олдида ўзини йўқотмай, илм олишга иштиёқи кучли, ўзидаги иқтидорни юзага чиқаришга интилаётган ўқувчилар



билан ишлашнинг гашти ўзгача. Уларнинг соғлом тенгдошлари қатори, берилган имкониятлардан унумли фойдаланиб, олға интилаётганини кўриб ғайратинг ошади, – дейди Алижон Абдуллажонов фахр билан. – Мактабда тўрт нафар жисмоний тарбия ўқитувчиси фаолият олиб бора-миз. Муҳаммадшариф Тўрахўжа-

ев, Шерали Охунов, Бунёд Деҳқоновнинг шогирдлари ҳам яхши натижаларни қайд этишмоқда.

Айни кунларда мактаб ўқувчилари май ойида ўтказиладиган спорт мусобақаларига жиддий тайёргарлик кўришмоқда.

Гулчеҳра БУВАМИРЗАЕВА,
ўз мухбиримиз.

Наманган вилояти.

ФАРЗАНДИМНИНГ ЮТУҒИ

БОЛА МИСОЛИ НИҲОЛ

Ички ишлар органлари тизимида 2009 йилдан бери самарали хизмат қилиб келаётган Бухоро вилояти ИИБ ЖХХ ҚПБ МТБ инспектори, подполковник Нигора Абзалова асосан вояга етмаганлар билан ишлайди.



– Болани ниҳолга қиёслаймиз. Ниҳол қандай парвариш қилинса, шундай ўсади. Ёшлар эса олаётган тарбияси орқали дунёқараши бойийди. Қолаверса,

атроф-муҳит ҳам ўз таъсирини кўрсатади. Узоқ йиллик хизмат фаолиятим давомида бунга кўп бора амин бўлганман, – дейди подполковник Н.Абзалова. – Ўз оилам борасида ҳам шунга алоҳида эътибор қаратганман. Фарзандларим тарбиясида бўш вақтимдан унумли фойдаланиш мақсадида кўпроқ улар билан мулоқот қиламан. Айниқса, топшириқлар бажаришини, синфдошлари билан муомаласини ҳамда дарс ўзлаштириш қобилиятини синовдан ўтказаман.

Лавҳамиз қаҳрамони турмуш ўртоғи Хуршиджон Каримов билан фарзандларининг тарбиясига жиддий ёндашган. Айни пайтда Хуршида олтинчи синфда ўқиса, Муҳаммад Ёсин энди-гина беш ёшга кирди.

– Қизим анчадан бери спортнинг енгил атлетика тури билан шуғулланади.

Ўқишдан бўш вақтида математика, инглиз тили, она тили ва адабиёт фанидан ўқув курсларига қатнашади. Шу билан бирга, журналистика соҳасига қизиқиши баланд. Бугунги кунга қадар бир қатор мақолалари газета ва журналларда чоп этилган. Турли хил мавзуда чизган расмлари «Тонг юлдузи» газетасида ҳам эълон қилинган. Бундан ташқари, бўш вақтида компьютер дастурларини ўрганишга ҳаракат қилмоқда. Бир неча йиллардан буён сардорлик қилиш билан бирга, республика миқёсидаги форум ҳамда анжуманларда фаол иштирок этмоқда. Ҳозирги кунда ҳам Ўзбекистон болалар ташкилотининг Бухоро шаҳар яшил макон йўналиши сардори, – дейди Нигорахон ғурурланиб.

Муҳаммад Ёсин ҳам опасига эргашиб, спортга меҳр қўйди. У Бухоро шаҳри-

даги «Ёшлик» номидаги 1-сонли спорт мактабида спорт гимнастикаси билан шуғулланиб келмоқда. Ҳозирги кунгача бир нечта мусобақаларда қатнашиб, фахрли ўринларга эришди. Унинг ҳар бир ютуғи оилани қувонтиради. Ўтган йили Самарқанд шаҳрида Ўзбекистон Республикаси Конституцияси кунига бағишлаб ўтказилган очик чемпионатда учинчи ўринни қўлга киритди.

Қисқаси, фарзандларининг эртасини ўйлаган ота-она улар учун сармоя киритган бўлса, албатта, бунинг натижаси юксак бўлади. Лавҳамиз қаҳрамони ҳам фарзандларининг келажагини ўйлаб, елиб-югураётгани боис, бунинг жавоби барокатли бўлмоқда.

Мирзоқул АҲАДОВ,
ўз мухбиримиз.

Бухоро вилояти.



■ Сырдарьинская область

В СЕРДЦЕ МИРЗАЧУЛЯ

Работать слаженно

В группу миграции и оформления гражданства Акалтынского РОВД ежедневно обращаются десятки человек. Большинство из них молодежь. Представившаяся Нигорой девушка из махаллы Куркам Диёр планирует поступать в высшее учебное заведение. Подготовку документов начала с получения ID-карты. Инспектор группы миграции и оформления гражданства младший сержант Хусан Абдужалилов выполнил необходимые процедуры, сфотографировал, внес биометрические данные в систему.

– К тем, кто не в состоянии лично прийти в отделение, выезжаем по месту жительства, – говорит Хусан Абдужалилов. – Обычно это престарелые и больные. Оперативно производим замену главного документа гражданина страны.

– Встречи и беседы с молодежью, профилактические мероприятия – одно из основных направлений нашей работы, – говорит оперуполномоченный группы по



Молодежи о киберугрозах

Для подрастающего поколения созданы все условия для физического, интеллектуального и духовного роста. Юноши и девушки учатся востребованным на рынке труда профессиям. Информационно-коммуникационные технологии предоставляют широкие возможности.

Однако наличие киберугроз – серьезная опасность. Идет борьба за умы и сердца молодежи с использованием современных технологий.

борьбе с терроризмом капитан Хумоюн Каримов. – Разъясняем пагубное влияние экстремистских течений.

За минувшее время проведено около двадцати подобных мероприятий, в ходе которых говорилось об угрозах информационных атак через социальные сети.

Надежный тыл – слагаемое успеха

График службы напряженный. Между тем для сотрудников их семьи – надежный тыл.



В приоритете – профилактика

– Интересуемся социальными запросами каждого сотрудника, – подчеркивает заместитель начальника РОВД майор Фахриддин Мамажонов. – Обобщаем данные, оказываем практическую помощь в решении возникающих проблем. При необходимости обращаемся в вышестоящие инстанции.

За практику взято посещение домов сотрудников, проведение бесед с членами их семей. В минувшем году двоим помогли оформить субсидию на приобретение жилья. Более десятка жен сотрудников прошли обучение на профессиональных курсах. Большинство из них уже трудоустроены.

С целью организации содержательного досуга организовываются экскурсии по историческим городам Узбекистана. Для детей сотрудников предусмотрены культпоходы в театры, музеи, парки.

Через Акалтынский район проходит железнодорожная магистраль «Ташкент–Термез». На этом участке есть и железнодорожные переезды. Каждый час сотни автомашин пересекают стальные пути.

На улицах оборудованы пешеходные переходы, установлены светофоры и иные средства оповещения. Однако нарушений ПДД немало.

В текущем году группой безопасности дорожного движения проведены профилактические встречи на более чем тридцати объектах – в образовательных учреждениях, на предприятиях, в организациях, махаллах. Пешеходам и водителям рассказали о нововведениях в ПДД, раздали буклеты и памятки.

Отдел внутренних дел Акалтынского района ведет целенаправленную работу по предупреждению правонарушений, обеспечению спокойной жизни граждан.

Абдурахмон МУСТАФОКУЛОВ,
соб. корр.

Будни сотрудников

ОТВЕТСТВЕННЫ ЗА КОНТРОЛЬ И ПОРЯДОК

Каждый день через контрольно-пропускной пункт Управления внутренних дел Самаркандской области проходят более 300 человек. Обеспечение контроля, порядка – прямая обязанность сотрудников, несущих здесь службу.

– В следующем году исполнится ровно 20 лет с того дня, как я впервые надел форму, – рассказывает командир группы охраны управления финансового и материально-технического обеспечения УВД области рядовой Фахриддин Шоназаров. – Еще в юности твердо решил, что буду работать в органах внутренних дел. В нашем подразделении требования особые. Сюда приходят подготовленные, выносливые люди, готовые к психологической нагрузке. Сотрудник КПП – это лицо учреждения, и от его профессионализма, четкости действий многое зависит.

Под началом Фахриддина Шоназарова служат рядовые Садриддин Хасанов и Зафар Хайдаров. Оба обладают солидным стажем, но про-



должают перенимать опыт у своего командира. Говоря о коллегах, наш герой подчеркивает их организованность, дисциплинированность и ответственное отношение к службе.

Работа на КПП – это не только проверка документов и координация потока людей. Это и выдержка, и постоянная готовность к стрессовым ситуациям. Не каждый способен сохранять внимание, вежливость и доброжелательность в течение 24-часовой смены.

Фахриддин с гордостью говорит о своей службе. Видно, что он не просто выполняет обязанности, а действительно любит свое дело и выполняет его с душой.

Замира БАЛТАЕВА,
соб. корр.

Самаркандская область.



SOHA FIDOYILARI

TALABALAR SUYANCHIG'I

Navoiy shahar IIB 2-sonli IIB HPG profilaktika inspektori (Navoiy davlat universitetiga biriktirilgan), mayor Surayyo Husanova tajribali xodimalardan. U 2018-yilda IIV Akademiyasini yakunlagach, xizmat faoliyatini boshlagan.

Lavhamiz qahramoni talabalar bilan doimiy muloqot qilib, ularning muammo va takliflarini

o'rganadi, shikoyatlarini ko'rib chiqadi. Ular tomonidan jinoyat va huquqbuzarlik sodir etilishining



oldini olish maqsadida targ'ibot-tashviqot ishlarini olib boradi.

Yaqinda Anvar (ismlar o'zgartirildi) do'sti Sanjarning onlayn o'yinlarga qiziqib qolganini, darsga e'tibori kamayganini, hatto ba'zida tuni bilan o'yin o'ynab, ertalab mashg'ulotlarga kelmayotganini aytib qoldi. Surayyo holatni tahlil qilib, shuncha talaba ichidan aynan bittasi bilan mazkur masalada suhbatlashish, unga tanbeh berish o'rinli bo'lmaydi degan qarorga keldi. Shuning uchun boshqa mutaxassis xodimlar ishtirokida targ'ibot tadbiri tashkil qilindi.

Tadbirda internet firibgarlariga aldanib qolganlar taqdiri aks etgan videolavha namoyish etildi. Xodimlar jinoyat olamida kiber-tahdidlarning salmog'i ko'payib borayotganini ta'kidlab, yoshlarga ogohlikka chaqiruvchi targ'ibot materiallarini tarqatishdi. Surayyo xuddi Sanjarning ahvoriga o'xshash vaziyatni misol keltirib, oqibati

xayrli bo'lmaganini aytdi. Keyingi kunlarda bu talabani uning o'ziga bildirmay kuzatdi. Targ'ibotlar ish berib, Sanjar internet o'yinlariga tobellekdan qutuldi.

Universitetda tahsil oladigan talabalarining ko'pchiligini qizlar tashkil etadi. Ularning anchagina yotoqxonada istiqomat qiladi. Surayyo ota-onasidan uzoqda yashab, o'qiydigan qizlarning sha'ni, or-nomusini asrash, ularning haq-huquqlarini himoya qilishga alohida e'tibor qaratadi. Hatto kechki paytlarda talabalar yotoqxonasiga borib, ularga yo'l-yo'riq ko'rsatadi, maslahat beradi.

Talabalar o'rtasida jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida ularning huquqiy madaniyatini yuksaltirish masalasi ham lavhamiz qahramonining doimiy diqqat markazida.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.

PROBATSIIYA XIZMATI

NAZORATDAGI SHAXSLAR E'TIBORDA

Qilmishi uchun jazo muddatini o'tagan va ayni paytda tuzalish yo'liga kirganlarning ijtimoiy moslashuvini ta'minlash maqsadida Buxoro viloyati IIB JXX Probatsiya bo'limi xodimlari tomonidan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

– Prezidentimizning «2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida muayyan daromad manbayiga ega bo'lmagan 43 nafar nazoratdagilarning bandligi ta'minlandi, 17 nafar shaxs mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblarga qayta o'qitish uchun

hududiy «Ishga marhamat» mono-markaziga o'qishga joylashtirildi. Tibbiy yordamga muhtoj 39 nafar shaxs chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, malakali tibbiy yordam ko'rsatildi, – deydi katta inspektor, kapitan Mirshohid Hamroyev.

– Shuningdek, mahalla yetiligi va sohaviy xizmat xodimlari bilan hamkorlikda olib borilgan o'rganishlar natijasida 825 nafar probatsiya nazoratidagi shaxsga ularning xulq-atvoriga ijobiy ta'sir ko'rsata oladigan fuqarolar tarbiyachi murabbiy etib biriktirildi. O'rganishlar davomida 7 nafar probatsiya nazoratida turuvchi shaxs ichkilikbozlikka ruju qo'yganini aniqlanib, majburiy davolanishga yuborildi.

Har oyda bir marotaba shahar va tuman hokimliklarining majlislar zalida markazlashtirilgan tartibda videokonferensaloqa tizimi ochiq muloqotlar tashkillashtirilmoqda. Ochiq muloqotda yirik tadbirkorlar ham taklif qilinib, nazoratdagilarni ijtimoiy moslashtirish, tadbirkorlik, hunarmandchilikka jalb etish, kasbga o'qitish orqali bandligini ta'minlash, daromadini oshirgan holda qayta jinoyat sodir etishlarining oldini olish borasida qator ishlar amalga oshirildi. Misol uchun aytadigan bo'lsak, nazoratdagilarni qiynab kelayotgan 40 dan ortiq ijtimoiy muammolar joyida bartaraf etildi.

Jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgan 8 nafar shaxsning har biriga tadbirkorlik yoki hunarmandchilik faoliyati bilan shug'ullanishi

uchun 11 million 550 ming so'mlik dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi berildi.

Bundan tashqari, hududiy Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limlari bilan hamkorlikda mehnat yarmakalari o'tkazilib, 64 nafar shaxsga ishga joylashishi uchun yo'llanmalar berildi. Shu bilan bir qatorda, jinoyat ishlari bo'yicha shahar-tuman sudlariga kiritilgan taqdimnomalar ko'rib chiqilib, sud tomonidan belgilangan jazoni o'tash tartib-qoidalariga amal qilgan va tuzalish yo'liga qat'iy o'tgan 52 nafar shaxs muddatidan ilgari shartli ravishda jazodan ozod qilindi. Yoki, aksincha, sud tomonidan tayinlangan jazolarni o'tashdan qasddan bo'yin tovlab kelayotgan bir nechta nazoratdagilarning o'talmay qolgan jazosi og'iriga almashtirildi.

Mirzoqul AHADOV
yozib oldi.

Buxoro viloyati.



QADRGGA QADR, YAXSHILIKKA YAXSHILIK BILAN



Prezidentimizning «Jazo muddatini o'tayotgan, qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'liga qat'iy o'tgan bir guruh shaxslarni afv etish to'g'risida»gi farmoni ko'plab oilalarning quvunch va shodligiga sabab bo'ldi.

– Afv qilingan shaxslar orasida tumanimizning 3 nafar fuqarosi ham bor, – deydi poytaxtning Yashnobod tumani IIOFMB Probatsiya bo'limi boshlig'i podpolkovnik Erpo'lat Mo'ldatashov. – Ular ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilingan. O'tgan vaqt mobaynida jazodan ozod qilingan shaxslarga moddiy yordam ko'rsatish, profilaktik hisobga qo'yish, tibbiy ko'rikdan o'tkazish, bandligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Afv etilganlar orasida «Jarqo'rg'on» mahallasida yashovchi, 1976-yilda

urayotganlarga bu yo'ldan qayting, deymen. Noni qattiq bo'lsa-da, halol rizq bo'lsin ekan. Shundagina xotirjam va baxtiyor hayot kechirish mumkinligini anglab yetdim.

– Bu oila mahalladagi eng tinch va namunali xonadonlardan biri bo'lgan, – deydi mahalla profilaktika inspektori, podpolkovnik Quvunchbek Kuku-zov. – Hayotda hamma ham adashadi, xato qiladi, faqat bundan tegishli xulosa chiqarsa, to'g'ri yo'lni topib oladi. Ishonamizki, Sardor G'ulomov xatolarini anglab yetdi. Shunga qaramay, ko'chaboshi Nurafshon Nurmatova bu oilaga birlashtirildi, endi sirayam e'tibor-



tug'ilgan Sardor G'ulomov ham bor. U giyohvandlik vositalari savdosiga aralashib qolgani bois jazo o'tayotgan edi. Bag'rikenglik siyosati tufayli muddatidan avval ozod etildi.

– Qilmishimdan juda pushaymonman, – deydi u. – Uch nafar farzandim bor, ularga o'rnak bo'lish o'rniga, umrimning eng go'zal lahzalarini panjara ortida o'tkazdim... Afsus... Xudoga shukurki, yo'limga ko'z tikib, kunni tunga ulab yashagan oilam bag'ridaman. Bu baxtni ta'riflash qiyin... Meni Yurtboshim, xalqim kechirdi, endi jinoyat ko'chasiga kirishga ortiq haqqim yo'q! Ichki ishlar organlari xodimlari to'g'ri hayotga qaytishimda asosiy tirgak bo'ldi. Turli sabablar bilan, bilib-bilmay, jinoyatga qo'l

siz tashlab qo'yish yo'q.

Aytmoqchi, Sardor G'ulomovga Yashnobod tumani Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi tomonidan 340-sonli umumta'lim maktabida qorovul bo'lib ishlash uchun yo'llanma berildi.

Hukumatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan bu kabi ezguliklar Sardor G'ulomov kabi tuzalish yo'liga o'tgan shaxslarning hayot o'zanini o'zgartirishiga ishonamiz. Qadrga qadr, yaxshilikka yaxshilik bilan javob berish esa ularning vijdon amriga aylanishini istaymiz.

Adolat FAYZIYEVA,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

Surxondaryo viloyatidan qilmishi uchun jazoni o'tash davrida pushaymon bo'lib, tuzalish yo'liga o'tgan 28 nafar shaxs muddatidan oldin oilasi bag'riga qaytdi.



Viloyat IIB JXX Probatsiya bo'limi xodimlari ularni ijtimoiy hayotga moslashtirish yuzasidan o'rta tashlanayotgan masalalarni yechish bo'yicha tegishli ishlar olib borib, muammolarini bartaraf etish choralari ko'rishyapti. Afv etilganlarga bir martalik moddiy yordam berildi. Shuningdek, ular tibbiy ko'rik-

ligiga ko'maklashish markazi yordamida munosib ish bilan ham ta'minlandim. Endi halol mehnat bilan ro'zg'or tebrataman. Barchasi uchun davlatimiz rahbariga minnatdorlik bildiraman.

Ishchi guruh vakillari Sherobod tumanidagi S.Jumayev hamda Sh.Baratovlarning ham



dan o'tkazilib, kasalligi aniqlanganlarining sog'lig'ini tiklashga ko'maklashildi.

Termiz shahrida istiqomat qiluvchilar Q.Umarova, F.Qudratov va Sh.Sadatovlarning xonadoniga ishchi guruh a'zolari borib, ularning yashash sharoiti bilan tanishishdi.

– Oilam bag'riga qaytgach, ozodlik biz uchun berilgan ne'mat ekanligini yana bir bor angladim, – deydi Sh.Sadatov. – Yaqinlarim men uchun naqadar azizligini tushundim. Aholi band-

xonadonlarida bo'lishdi. Ijtimoiy moslashtirish tadbirlari asosida har ikkala shaxsning ahvoli o'rganilib, muammolarini hal etishga ko'maklashildi.

Albatta, bu tadbirlardan ko'zlangan maqsad nazorat ostidagi shaxslarning qayta jinoyat sodir etmasligi hamda belgilangan yengillikni to'g'ri tushunib, jamiyatda o'z o'rnini topishiga ko'maklashishdir.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.



TIL – MILLAT BOYLIGI

Oltin, kumush, bronza va boshqa turdagi tabiiy resurslar millat boyligi sanaladi. Biroq, til – millatning tabiiy qazilmalar singari moddiy emas, balki ma'naviy boyligi. U nafaqat muomala vositasi, ayni paytda, xalqning madaniyati, urf-odati, turmush tarzi va tarixidir. Turli xalqlarning tillariga hurmat esa, o'z navbatida, o'zaro tushunish, muloqotlarga imkoniyat yaratadi. Barcha tillarni tan olish va hurmat qilish tinchlikning asosiy kafolatidir.

1989-yil 21-oktabrda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. Bu mustaqillikka tashlangan ilk qadamlardan biri bo'ldi. Istiqolga erishgach, Bosh qomusimizda davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2019-yil 21-oktabrda «O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonni imzoladi. Shuningdek, davlatimiz rahbarining 2020-yil 20-oktabrdagi «Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni bilan o'zbek tilini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi. «21-oktabr – O'zbek tili bayrami kuni» deb belgilandi.

So'nggi yillarda ko'plab idoraviy hujjatlarning yuritilishi davlat tiliga o'tkazildi. 100 mingdan ortiq geografik obyekt nomlari davlat reyestriga kiritildi. Hududlardagi 150 mingdan ziyod tashqi yozuvlar davlat tili va reklama to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiqlashtirildi. Yangi paydo bo'layotgan zamonaviy tushunchalarga nom berish, so'z va atamalarni rasmiy iste'molga kiritishni tizimli yo'lga qo'yish uchun Atamalar komissiyasining faoliyati tubdan

takomillashtirilib, aniq ilmiy mezonlar ishlab chiqildi.

Rahbarlik lavozimlariga nomzodlarning o'zbek tili bo'yicha bilim darajasini aniqlash maqsadida milliy test tizimi joriy etilib, qisqa vaqt ichida 3 mingdan ziyod talabgorning qariyb 1 ming 500 nafariga davlat tilini bilish bo'yicha sertifikatlar berildi. Davlat tili asoslarini chuqur va atroflicha o'rganishni ta'minlash uchun Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasi tomonidan 58 nomdagi qomus, lug'at va qo'llanmalar ko'p ming nusxalarida chop etildi.

Joriy yil 1-yanvardan boshlab umumta'lim maktablari-da milliy sertifikatga ega bo'lgan o'zbek tili o'qituvchilariga maoshining 50 foizi miqdorida oylik ustama

haq to'lanishi ona tilimiz fidoyilarining sharaflari mehnatini rag'batlantirish uchun katta e'tibor va e'tirof bo'ldi.

Badiiy tarjimaning til taraqqiyotida ulkan ahamiyatga egaligi hech kimga sir emas. Shu ma'noda, mamlakatimizda badiiy tarjima sohasida Muhammad Rizo Ogahiy nomidagi xalqaro mukofot ta'sis etilgani o'zbek tili va adabiyotini yanada boyitish va dunyoga tanitishda muhim omil bo'lishi shubhasiz.



Shu o'rinda Yoshlar ishlari agentligining vatanparvar yigit-qizlarni jalb etishi natijasida «Vikipediya» xalqaro internet ensiklopediyasidagi o'zbekcha ma'lumotlar hajmi keskin ko'payib, davlat tilida e'lon qilinayotgan maqolalar hajmi bo'yicha O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasida yetakchi mamlakatga aylanganini ham alohida e'tirof etish lozim.

O'tgan davr mobaynida Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazida turli tashkilot va idoralarda mehnat qilayotgan 33 mingdan ortiq xodimlar o'qitilgani, shuningdek, teleradiokanal-lar va internet saytlarida davlat tilini o'rganishga yordam beradigan dasturlarning soni va e'fir vaqtlarini ko'paytirish, mustaqil til o'rganuvchilar uchun qo'shimcha adabiyotlar, lug'at va qo'llanmalar nashr etish doimiy e'tibor markazida bo'lgani ham diqqatga sazovor ishlardir. Ayni paytda raqamli makonda davlat tilini keng joriy etishga mo'ljallangan ishlarni yangi bosqichga ko'tarish, o'zbek tilini axborot texnologiyalari sohasidagi yirik dasturlar tili qatoriga kiritish choralari ko'rish dolzarb vazifalardan biridir.

Tilimiz boyligi haqida so'z yuritgan o'zbek romanchiligining asoschisi bo'lgan Abdulla Qodiriy bejiz «O'zbek tili kambag'al emas, uni kambag'al deganlarning o'zlari kambag'al», deya ta'kidlamagan. Chunki o'zbek tili shu qadar boyki, uning xazinasidan istalgan so'zning bir necha variantini topa olasiz. Balki, shuning uchun ham

hazrat Navoiy turkiy tilda «Xamsa» yaratib, «Muhokamatul lug'atayn»ni bitishni ixtiyor qilgandir?! Zahiriddin Muhammad Bobur esa hind diyorida yashagan bo'lsa ham, avlodlarimga esdalik, deya ona tilida shoh asari – «Boburnoma»ni yozgandir?!

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbek tili bayrami munosabati bilan O'zbekiston xalqiga yo'llagan tabrigida ta'kidlanganidek, «Inson uchun kindik qoni tomgan Vatani, dunyoga keltirib voyaga yetkazgan ota-onasi qanchalik aziz va mukarram bo'lsa, uning o'zligi va ma'naviy olamini belgilaydigan ona tili ham shunchalik qadrlil va mo'tabardir». Haqiqatan ham, inson qalbidagi eng olijanob fazilatlar uning ona

tilining betakror mo'jizasi, sehri va jozibasi bilan shakllanadi va kamolga yetadi.

Xulosa o'rnida ta'kidlamochi bo'lganimiz o'zbek xalqining o'zligini O'zbekistondan minglab chaqirim yiroqlarga yetadigan ovozda kuy-lagan O'zbekiston qahramoni, xalq shoiri Erkin Vohidov ta'biri bilan aytganda, ona tili – umum-millat mulki. Demak, til oldidagi mas'uliyat ham umummilliy bo'lib, bu yolg'iz tilshunoslarning emas, butun millatning ishi ekanini doimo yodda tutishimiz zarur.

Shuhrat RO'ZIYEV,
o'z muxbirimiz.



Maqolani
qoraqalpoq tilida
o'qish uchun
QR-kodni skaner
qiling.






INTEGRATSIYALASHGAN TIZIM

Surxondaryo viloyati noyob madaniy yodgorliklar, tabiiy meros obyektlari, go'zal tabiat manzaralari va shifobaxsh zilol suvlarga boy hudud. Milliy hunarmandchiligi va nafis folklor san'ati bilan ham dunyo ahlini maftun etib keladi. Viloyatda ziyorat, agro, sanoat, ekologik va sog'lomlashtirish, gastronomik kabi turizm yo'nalishlarining rivojlanayotgani hududga mahalliy va xorijlik sayyohlar oqimini yil sayin kengaytirmoqda.

– Viloyat hududidagi barcha turizm obyektlari, chegara hududlaridagi kirish-chiqish postlari, aholi gavjum joylar, asosiy chorrahalar, aeroport va vokzallardagi 300 dan ortiq kuzatuv kameralari situatsion markazga integratsiya qilingan bo'lib, doimiy ravishda nazorat olib borilmoqda, – deydi viloyat IIB XTTB bo'linma boshlig'i, mayor Farrux Qodirov.

Qolaversa, sutkalik navbatchilik asosida xizmat olib borish davomida viloyat hududiga tashrif buyuruvchi sayyohlardan kelib tushayotgan murojaatlar o'z vaqtida qabul qilinib,



tegishli yordam ko'rsatilmoqda. Natijada turizm obyektlarini to'g'ridan-to'g'ri kuzatish imkoniyati paydo bo'lib, har qanday ko'ngilsiz holatning oldini olishga shuningdek, sodir etilgan huquqbuzarlik va

jinoyatlarni «issiq izida» fosh etishga yordam beryapti. Jumladan, sayyohlarning ehtiyotsizligi oqibatida yo'qotilgan buyumlar aynan integratsiya qilingan kuzatuv kameralaridagi tasvirlar orqali topilmoqda.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.

CHORTOQNING TURISTIK MANZILLARIDA

Chortoq tumani salqin havosi, qulay geografik joylashuvi va shifobaxsh suvlari, tibbiyot turizmining rivojlanayotgani bilan sayyohlar e'tiborini tortayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, muqaddas qadamjolari bilan ham tilga tushgan. Uning mineral suvi esa tarkibida inson organizmi uchun foydali elementlarga boyligi bilan mashhur.

Jahon bankining «O'rta shaharlarni kompleks rivojlantirish» dasturi doirasidagi bunyodkorlik ishlari natijasida tuman markazi ham o'zgacha qiyofa kasb eta boshladi. Xususan, Bozorboshi dahasidagi yerosti yo'li zamonaviy uslubda to'liq rekonstruksiya qilindi, natijada markaziy chorrahada avtomobil qatnovi uchun ham, piyodalar uchun ham bexatar qatnov qulayligi yaratildi.

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki ishtirokida «Chortoq shahrini kompleks rivojlantirish» loyihasi asosida yo'naltirilayotgan Jahon bankining 39,97 mln AQSH dollari miqdoridagi mablag'ining o'zlashtirilishi bilan tuman markazi misli ko'ril-magan darajada ko'rkamlilik kasb etadi.

Chortoq jamoliga tog'lar yoki ulug'vor tepaliklar emas, zamonaviy imoratlar, shaharsozlik an'analarini o'zida mujassam etgan muhtasham binolar ham emas, aynan tu-

man markazidan oqib o'tuvchi, jilg'alar-u buloqlardan hosil bo'lgan, goh to'lib, goh jimirlayotgan Chortoqsoy bezak bo'ladi.

Tog' havosining musaffo epkinlariga ham yo'lak vazifasini bajaruvchi Chortoqsoy bo'ylab piyodalar va velosipedchilar uchun 11 kilometrli ekoyo'lak bosqichmabosqich barpo etilayotgani ham mahalliy aholini behad quvontirmoqda. Uning qirg'oq bo'yi hududida aholi

va sayyohlar uchun barcha qulayliklarga ega dam olish hamda turizm maskanlarini tashkil etish ishlariga ham kirishilgan. Piyodalar ko'pri-gi Chortoqsoyning umumiy ko'rinishiga ziynatday bo'lib, el koriga yaramoqda.

Xalq tilida «Baliqli ko'l» deb ataluvchi ziyoratgoh ham O'zbekiston moddiy va madaniy merosining ko'chmas mulk ob'ektlari milliy ro'yxatiga kiritilgan. Bu yerda xizmat ko'rsatish



shoxobchalari, muzey va kutubxona, maqbara, uning yonida ayvon, 1400 o'ringa mo'ljallangan masjid va zamonaviy talab-larga mos va xos tarzda bunyod etilgan mehmonxonani ko'rishingiz mumkin. Salkam to'qqiz asrlik

Qur'oni karim mushafi nusxasi Hazrat Uvays Qaroniy ziyoratgohida asrab-avaylab saqlanmoqda.

Gulchehra BUVAMIRZAYEVA,
o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.



Урок духовности и просвещения

ЯЗЫК – БОГАТСТВО НАЦИИ

Родной язык хранит мудрость предков, выражает самосознание нации. Не случайно говорят: «Язык – душа народа».

Узбекские просветители, общественные деятели проявляли истинную самоотверженность во имя сохранения родного языка. «Зеркало жизни каждого народа, показывающее его существование в мире, – это его язык и литература», – отмечал Абдулла Авлони.

Махмудходжа Бехбуди, утверждая, что великой силой, возвышающей дух нации, является родной язык, подчеркивал: именно в нем отражается нравственный мир народа.

Исхакхон Ибрат, составивший словарь на узбекском, арабском, персидском, хинди, турецком и русском языках, писал: «Наша молодежь обязательно должна стараться выучить другие языки, но в первую очередь она должна оберегать и уважать родной язык».

Глава государства Шавкат Мирзиёев, подчеркивая роль узбекского языка, отметил: «Это бесценное, огромное богатство, отражающее историю народа,

ному стандарту, он продолжает развиваться, сохраняя уникальность и самобытность. Говоря о его истории, мы с гордостью можем утверждать: она отражена в трудах Кашгари, бессмертных произведениях Навои, во вдохновенных строках Бабур.

Великий Алишер Навои в трактате «Муҳокамат ул-луғатайн» пишет: «В этом языке найдется так много богатства и тонкостей, что легче будет на этом языке словотворчество, словесное искусство, стихосложение и написание повестей. В этом



Узбекский язык связывает поколения, служит основой для сохранения национальной идентичности. Он один из крупнейших среди тюркских языков. В мире на нем говорят более 50 миллионов человек.



языке имеется множество изумительных редких слов и выражений». Данное суждение он подтвердил своими гениальными произведениями.

Язык – живой организм, который совершенствуется вместе с обществом. Сегодня узбекский язык переживает новый этап расцвета. Осуществляется деятельность по кардинальному повышению его роли и авторитета, реализуются меры, направленные на достижение

полноценного использования возможностей государственного языка во всех сферах общественно-политической жизни. Модернизируется система его обучения в образовательных учреждениях, повышается культура речи населения.

В соответствии с требованиями времени идет активный процесс перевода языка информационно-коммуникативных технологий на узбекский. Обогащается национальный сегмент глобальной сети интернет, разрабатывается программное обеспечение для искусственного интеллекта, работающего с узбекским языком.

Научное изучение узбекского языка охватывает такие отрасли, как социолингвистика, психолингвистика, лингвокуль-

турология и др. Издаются словари нового поколения, среди которых пятитомный «Толковый словарь узбекского языка», содержащий около 60 тысяч слов и сочетаний. Для введения в официальный оборот современных обозначений усовершенствована деятельность Комиссии по терминам, разработаны соответствующие критерии.

Вместе с тем, несмотря на предпринимаемые усилия по популяризации и укреплению статуса узбекского языка, к сожалению, все еще встречаются случаи искаженного его использования, нарушения грамматических правил, особенно в рекламе. Это вызывает обостренное беспокойство в обществе, требует усиления контроля за соблюдением языкового законодательства, повышения ответственности производителей контента. Игнорирование фактов коверкания языка может привести к постепенному размыванию его норм. Важно сформировать в обществе нетерпимое отношение к языковой небрежности, особенно в публичном пространстве. Так мы сможем сохранить чистоту и богатство узбекского языка для будущих поколений.

* * *

Государственный язык – могучая сила, объединяющая народ Узбекистана. Он способствует сплочению представителей более чем 130 наций и народностей, живущих в стране. При этом Основной закон гарантирует уважительное отношение к языкам, обычаям и традициям всех этнических групп, проживающих на ее территории, что способствует гармонизации межнациональных отношений.

Наргиз МАДАМИНОВА,
старший преподаватель
УзГУМЯ.

его самобытность, духовный мир и культуру. Родной язык, объединявший нас в единый народ в самые сложные, полные испытаний периоды нашей древней истории, через века пронесший наши немеркнущие исконные ценности, поистине достоин любви и уважения».

Истоки узбекского языка уходят в глубину веков. Пройдя долгий путь от древнетюркских диалектов через чагатайский язык к современному литератур-



▶ ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН – ЯНГИ ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИ

МАРКАЗ ИШ БОШЛАДИ

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 18 декабрдаги «Ички ишлар органларининг йўл ҳаракати қоидаларини бузиш билан боғлиқ маъмурий ҳуқуқбузарлик тўғрисидаги ишларни кўриб чиқиш соҳасидаги фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида»ги қарорига асосан, фуқароларга тезкор ва сифатли хизмат кўрсатиш мақсадида Наманган вилоятида янги Маъмурий амалиёт маркази ўз фаолиятини бошлади.

Шуни алоҳида таъкидлаш керакки, марказ фаолиятини бошлаши билан ходимларга йўл ҳаракати қоидаларининг бузилишига доир маъмурий ҳуқуқбузарлик тўғрисидаги ишлар ва



маълумотларнинг қонунчилик ҳужжатларига мувофиқлигини назорат қилиш, жисмоний ва юридик шахсларнинг маъмурий ҳуқуқбузарликлар бўйича мурожаатларини «ягона дарча», «экстерриториаллик» ва «Open space» тамойиллари асосида кўриб чиқиш, маъмурий ҳуқуқбузарликларни кўриб чиқиш билан боғлиқ ҳолатларни онлайн ўрганиш, вилоят, туман (шаҳар) кесимида таҳлил қилиб бориш каби қатор вазифалар белгилаб берилди.

Хуршидбек СОЛИЕВ,
майор.

Наманган вилояти.

▶ КЎРИК-ТАНЛОВ

БИЛИМ ВА МАҲОРАТ БАҲСИ

Тиббиёт ходимларининг касбий кўникмаларини мустаҳкамлаш ҳамда уларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш мақсадида анъанавий тарзда ўтказиб келинадиган «Йилнинг энг яхши тиббий ҳамшираси» кўрик-танловининг ИИВ Марказий поликлиникаси босқичи бўлиб ўтди.

Танловда тиббиёт муассасасининг моҳир ҳамширалари ўзаро беллашди. Ҳакамлар ҳайъати иштирокчиларнинг маҳоратини таништирув, касбга оид савол-жавоб, тиббий амалиёт ва эркин мавзу шартлари бўйича баҳолаб борди.

Якуний натижаларга кўра терапия бўлинмаси тиббий ҳамшираси Зилола Сатторова фахрли биринчи ўринни қўлга киритди. Жарроҳлик бўлинмаси вакиласи

Сарвиғул Синдарова иккинчи, рўйхатхона тиббий ҳамшираси Наргиза Ҳақимова учинчи ўринга сазовор бўлди.

– Танлов кўтаринки кайфиятда ўтди, – дейди З. Сатторова. – Барча иштирокчилар ўз касбининг моҳир усталари. Шунинг учун ҳам тайёргарлик жараёнида билимларимни янада бойитишга ҳаракат қилдим. Уринишларим ўз самарасини берди. Билим ва кўникмаларимни амалда қўллаб, танловнинг кейинги босқичида Марказий поликлиника шарафини муносиб ҳимоя қиламан.

Тадбир сўнггида ғолиб ва совриндорларга диплом ҳамда эсдалик совғалари топширилди.

Гулноза ТУРҒУНБОЕВА,
ўз мухбиримиз.



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postda_uz



Постановление и его исполнение

НАЦЕЛЕНА НА СОТРУДНИЧЕСТВО

Как строится работа по обеспечению безопасности в махаллях? Какие меры предпринимаются для профилактики правонарушений? Что тревожит жителей? На эти и другие вопросы получили ответы участники пресс-конференции, прошедшей с участием руководства Ферганского областного УВД.

Главной темой встречи стала реализация Постановления Президента от 3 января 2025 года «О мерах по созданию безопасной среды и дальнейшему повышению эффективности системы раннего предупреждения правонарушений в махаллях республики». Журналистам предоставили

семейно-бытовым насилием. Меньше стало ДТП со смертельным исходом, преступлений, совершенных молодежью, женщинами, ранее судимыми, а также в состоянии алкогольного опьянения.

Вместе с тем за первый квартал зарегистрировано 10 угонов автотранспорта – в основном из-за неосто-

5 махаллей. Такой подход уже начал давать результаты: охвачено 100 махаллей с высоким уровнем криминальной обстановки, где теперь работа ведется по новым стандартам.

Журналисты, присутствовавшие на встрече, активно задавали вопросы, высказывали замечания и предложения. Особое внимание уделили темам безопасности на дорогах, обеспечению общественного порядка, а также борьбе с киберпреступностью – актуальной проблеме нашего времени.

Итогом встречи стала договоренность о дальнейшем расширении сотрудничества между пресс-службой УВД и средствами массовой информации. Потому что безопасность – это не только работа силовых структур, но и результат доверия, диалога и взаимодействия с обществом.

Абдувосит СИДИКОВ,
соб. корр.

Ферганская область.



подробную информацию об осуществляемых шагах и достигнутых результатах.

По словам представителей УВД, в марте на территории области зафиксировано снижение числа противоправных деяний: минус 140 случаев. Особенно заметно улучшение в махаллях. Удалось добиться снижения преступлений, связанных с нанесением телесных повреждений,

рожности самих водителей, которые оставляли машины с ключами в замке зажигания. Эти случаи произошли в Фергане, Коканде, Маргилане, а также в районах Алтыарык, Узбекистан и Бувайда.

В соответствии с задачами постановления, в области созданы 20 пунктов правопорядка. Каждый из них курирует микрорайон, объединяющий

«СЛУЖБА ДЛЯ СИЛЬНЫХ ДУХОМ»


Вопрос: Каким должен быть сотрудник органов внутренних дел?

Анвар ДЕВЯТОВ, полковник в отставке, кавалер ордена «Дўстлик»:

– Служить в органах внутренних дел не каждому по плечу. Это выбор тех, кто готов посвятить себя защите закона, обеспечению правопорядка. Она для сильных духом, преданных Присяге.

Каждый сотрудник должен глубоко осознавать, что высший смысл его деятельности – следование принципу «Служить интересам народа!» Это обязательство формирует духовный облик, проявляющийся в нетерпимом отношении к любым действиям, оскорбляющим человеческое достоинство, неустрашимости перед лицом опасности, проявлении твердости в борьбе с преступностью.

Обращаясь к молодым сотрудникам, не устаю повторять: надо работать над собой, стремиться быть всесторонне развитой личностью, с достоинством вести себя как на службе, так и вне ее, неукоснительно следовать правилам поведения, закрепленным в Кодексе профессиональной культуры и служебной дисциплины – руководстве, обращенном к сознанию и совести сотрудника. Безупречное выполнение положений Кодекса обеспечивает моральное право на общественное доверие, уважение и поддержку граждан.



СОЗДАВАЯ БЕЗОПАСНУЮ СРЕДУ

В махаллях реализуются комплексные меры по повышению эффективности системы профилактики правонарушений, созданию безопасной среды.

В рамках мероприятий, предусмотренных «Дорожной картой», в махалле Киририк Янгиюльского района при содействии пред-

принимателей оборудованы две образцовые улицы, а также безопасные дорожки. Расширена система видеонаблюдения: современными



камерами, способными распознавать лица и автомобильные номера, оснащены улицы Зиёлилар, Истиклол, Навруз-1 и др. Для улучшения ночного освещения на улице Лойихавий установлено 12 фонарей.

Повышена безопасность точек торговли и общепита. На объектах «Damirchi bobo», «Chortoq» функционируют

беспроводные GSM охранные системы.

Особое внимание уделено территории, прилегающей к школе № 58. Здесь заасфальтирована дорога, нанесена новая разметка, оборудована автоостановка.

Радик ТУМΠΑРОВ,
соб. корр.

Ташкентская область.



TINCHLIK VA BARQARORLIK YO'LIDA

(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)

DADIL ODIMLAB

Zebuniso mahallasida joylashgan 1-sonli huquq-tartibot maskani 5 ta mahalla hududini qamrab olgan bo'lib, 15600 nafardan ziyod aholi xavfsizligiga bevosita mas'ul. Huquq-tartibot maskaniga qarashli mahallalarda xizmat faoliyatini olib borayotgan profilaktika inspektorlari hamda hamkor tashkilotlarning jonbozligi bilan samaradorlik ancha oshgan.



– Maskanimizga birlashtirilgan «Olmazor», «Hosildor», «Yangi-obod» mahallalari «yashil» toifada. Zebuniso hamda «Qipchoq» mahallalarini «yashil» toifaga o'tkazish yo'lida harakat qilyapmiz. Huquqbuzarliklar profilaktikasi va

jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida hamkorlikda chora-tadbirlarni amalga oshirib, tez orada barcha mahallalarimizni «yashil»ga aylantirmoqchimiz, – deydi profilaktika bosh inspektori, katta leytenant Mehriddin Mallayev.

INTIZOM MUHIM



Tuman IIB JXX Probatsiya guruhi tomonidan joriy yil boshidan buyon 148 nafar shaxs hisobdan chiqarilib, sud hukmi talablarini qo'pol ravishda buzgani uchun 7 nafarining jazo chorasi og'irrog'iga almashtirilgan. Hozirgi kunda probatsiya hisobida turadiganlarning umumiy soni 437 nafarni tashkil etadi.

Yil boshidan buyon bir necha bor mehnat yarmakalari tashkil etilib, probatsiya nazorati ostidagi shaxslarning ijtimoiy moslashuviga ko'maklashish, ular qayta jinoyatga qo'l urishining oldini olish va bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida qator amaliy choralar ko'rilmogda.



FUQAROLAR ROZILIGI UCHUN

Joriy yilning dastlabki uch oyi yakunlariga ko'ra, tuman IIB M va FRB xodimlari tomonidan 6528 nafar O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga, bundan tashqari, 4 nafar fuqaroligi bo'lmagan shaxsga ID-kartalar rasmiylashtirilgan.

Shuningdek, 134 nafar fuqaroning yo'qotilgan pasportlari qayta tiklanib, 2267 nafar yurtdoshimizga xorijga chiqish biometrik pasportlari taqdim etilgan. Sobiq ittifoq davridan buyon hozirgi kunga qadar fuqarolik pasporti olmagan 2 nafar shaxs O'zbe-

kiston Respublikasi fuqaroligiga mansubligi aniqlanib, ularga ham ID-kartalar berilgan.

Bo'limda mutaxassislardan kerakli huquqiy maslahat olish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. Elektron navbatlar esa fuqarolarga har tomonlama qulaylik yaratmogda.

XOLISLIK – BOSH MEZON

Tuman IIB huzuridagi Tergov bo'limi katta surishtiruvchisi, mayor Murodjon Karimberdiyev ikki yildan buyon mazkur lavozimda faoliyat yuritmogda. U muqaddam Angren shahar hamda Parkent tumani IIBlarda tergov yo'nalishi bo'yicha namunali xizmat qilgan.



Bugungi zamonaviy axborot texnologiyalari davrida yangidan-yangi jinoyat turlari paydo bo'lmoqda. Kibertahdidlar oshib boryapti. Firibgarlik, yo'l-transport hodisalari bilan bog'liq huquqbuzarliklar ham masalani har tomonlama sinchiklab o'rganishni taqozo etmogda. Bularning barchasi tergov yo'nalishidagi xodimlarni o'z ustilarida yanada ko'proq ishlashga undaydi. Eng

muhimi, xolislik faoliyatimizning bosh mezonini bo'lishi darkor, – deydi mayor Murodjon Karimberdiyev.

Hozirda tuman IIB tergovchilari tomonidan bir oyda 70 dan ortiq tergovga qadar tekshiruv materiallari, 50 dan ziyod jinoyat ishlari ko'rib chiqilmogda.

Abror POYONOV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent viloyati.

UCH AVLOD UCHRASHUVI

UNUTILMAS TAASSUROT



Nukus tumanidagi ixtisoslashtirilgan maktabda o'tkazilgan «Uch avlod uchrashuvi»da Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vaziri maslahatchisi, iste'fodagi polkovnik O. Turdaqov, Faxriylar kengashi raisi, iste'fodagi podpolkovnik F. Sankibayev, kengash a'zolari, tuman IIB xodimlari, shuningdek, maktab jamoasi ishtirok etdi.

Tadbir davomida faxriylar o'zlarining mehnat yo'li va xizmat davridagi voqealar to'g'risida so'zlab berishdi. Shu bilan birga, bugungi kunda yoshlarga yaratib berilgan imkoniyatlardan unumli foydalanish zarurligi haqida so'z yuritildi.

Mazkur maktab 2022-yilda Prezident farmoniga asosan tashkil etilgan bo'lib, zamonaviy turdagi kimyo, biologiya, fizika, robototexnika laboratoriyalari va kompyuterlar bilan ta'minlangan. Hozirda bu

yerda 30 nafar o'qituvchi 196 nafar o'quvchiga ta'lim berib kelmoqda. 2023–2024-o'quv yilida bitiruvchilarning 85 foizi oliy ta'lim muassalariga o'qishga kirishga muvaffaq bo'lgan bo'lsa, hozirda 7 nafar o'quvchi xalqaro IELTS sertifikat, 3 nafari chet tili, 2 nafari tarix, 1 nafari fizika fanlari bo'yicha milliy sertifikatga ega.

Uchrashuv kutilganidan ham a'lo darajada o'tdi, deb bemalol aytish mumkin. Chunki zalga kirib kelgan mehmonlarning yurish-turishi, harbiy

libosi, ko'ksini bezagan orden-meddallarni ko'rgan o'quvchilar katta qiziqish bildirishdi. Ayniqsa, ilgari Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vaziri lavozimida ishlagan O. Turdaqov va A. Temirxanovlarning «Bizlar ham sizlar kabi oddiy qishloq sharoitida o'sib-ulg'aydik. Bilim, intilish va mehnatimiz tufayli vazir darajasigacha chiqdik. Shunday ekan, yaxshi ta'lim olishga intilishingiz zarur. Shunda sizning orangizdan ham olimlar, tadqiqotchilar, vazirlar va boshqa sohalarining taniqli kishilari yetishib chiqsa, ajab emas» degan

so'zlari o'quvchilarda katta taassurot qoldirganini ta'kidlash o'rinlidir.

Tadbirda maktab o'quvchilari tomonidan tayyorlangan turli sahna ko'rinishlari namoyish etilib, o'quvchi yoshlar o'z iste'dodlarini ko'rsatishdi.

Shundan so'ng mehmonlar tomonidan o'qish va jamoat ishlarida faol ishtirok etib kelayotgan o'quvchilarga esdalik sovg'alari, kitoblar tantanali ravishda topshirildi.

Azamat PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.



XIZMATLARDA

TUSHKUN QALBNI YORITGAN NUR

Ma'lumki tergov hibsxonasida jinoyat ko'chasiga kirgan shaxslar vaqtincha saqlanadi. Ular tergov hibsxonasiga keltirilganida yuqori ruhiy-emotsional holatda bo'ladi. Temir panjara ortiga ilk bor tushgani uchun dastlab ko'ziga ko'ringan odamni, hatto xatosi uchun aybdordek, xodimlarni ham haqorat qilishi mumkin.

Shunday kezlarda xodimlarimiz bosiqlik va vazminlik bilan ularga bunday ko'rgulik, hayotidagi keskin o'zgarish o'tkinchi ekanligini aytib, o'zini tutib olishiga ko'maklashadilar. Hayot shu bilan to'xtab qolmasligini, aybini yuvib, to'g'ri yo'lga qaytish uchun hamma vaqt imkoniyat bo'lishini misollar bilan tushuntirishadi. Bunday yondashuv bu yerga tushgan juda ko'pchilikning ong-tafakkurini butkul o'zgartirib yuboradi.

Bundan uch yil oldin sayxunobodlik A.K. bosqinchilik jinoyati uchun tergov hibsxonasida vaqtincha saqlanadi. Mastlik ta'sirida u qo'shni xonadonlardan biriga bostirib kirib, ikki fuqaroga og'ir tan jarohati yetkazgan ekan.

A.K. jazo muddatini o'tab, ozodlikka chiqqach, hibsxona rahbari nomiga shunday xat yozdi: «Men bir xato tufayli mansab va obro'e'tiborimdan ayrilganimdan qattiq pushaymon



edim. Ko'nglim chiroq yoqsa yorishmaydigan darajada tushkunlikka tushib qolgandim. Shunday paytda tergov hibsxonasi xodimlarining tavsiya va tushuntirishlari katta ruhiy dalda bo'ldi. Ko'nglimga tuynukdan tushgan nurdek yorug'lik indi. O'zimni qo'lga oldim. Jazoni munosib tarzda, intizomga qat'iy rioya qilgan holda o'tadim. Natijada qisqa muddatda ozodlikka chiqdim. Buning uchun Sizlardan minnatdorman».

IIV huzuridagi JIED Uchinchi mintaqaviy hududi 8-sonli tergov hibsxonasining har bir xodimi o'z ishiga mas'uliyat bilan yondashadi. Ular bilan maxsus, ma'naviy-ruhiy tayyorgarlik darslari o'tiladi. Tarbiyaviy suhbatlar, psixologik darslar natijasi bo'yicha testlar o'tkaziladi.

Muassasada sport mashg'ulotlari o'tkazish, jangovar tayyorgarlikni oshirish mashqlarini bajarish uchun barcha sharoitlar mavjud. Natijada xodimlarimiz voleybol, mini-futbol, kurash bo'yicha bir qancha musobaqalarda sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritib kelmoqda. Xususan, yaqinda Jazoni ijro etish departamenti muassasalari o'rtasida bo'lib o'tgan mini-futbol musobaqasida sovrindor bo'lishdi.

Orif ABDUSATTOROV,
IIV huzuridagi JIED Uchinchi mintaqaviy
hududi 8-sonli tergov hibsxonasi katta
inspektori, kapitan.

Sirdaryo viloyati.





ПРОТИВОСТОЯТЬ СТРЕССУ, СОХРАНЯТЬ САМООБЛАДАНИЕ

В батальонах ДПС столицы на регулярной основе проводятся специализированные тренинги для сотрудников.

Эта работа направлена на решение сразу нескольких ключевых задач. Во-первых, особое внимание уделяется укреплению психологического микроклимата в служебных коллективах. Специфика работы сотрудника ДПС ежедневно сопряжена с высоким уровнем стресса и необходимостью оперативного реагирования на самые разнообразные ситуации. В таких условиях здоровая и доброжелательная атмосфера внутри подразделения становится залогом эффективной работы и психологической устойчивости каждого инспектора.

Во-вторых, новая система обучения играет ключевую роль в подготовке молодых специалистов, которые только начинают свой путь в правоохранительных органах. Адаптация к службе, усвоение профессиональных навыков и, что



особенно важно, обучение эффективному взаимодействию с гражданами – вот основные задачи, которые решаются в ходе тренингов.

Молодые сотрудники получают необходимые знания для грамотного и правомерного выполнения своих обязанностей, учатся находить оптимальные решения в нестандартных ситуациях.

Система обучения построена таким образом, что новые сотрудники проходят обязательные тренинги при поступлении на службу. Кроме того, по инициативе командиров батальонов, ежемесячно проводятся дополнительные занятия для всего личного состава. Тематика тренингов разнообразна и актуальна для повседневной работы инспекторов. К примеру, одной из последних тем стала «Конфликты между водителем и сотрудником ДПС», в рамках которой разбирались различные сценарии и эффективные способы разрешения возникшей ситуации. Сотрудники учились сохранять спокойствие и выдержку, вести диалог с участниками дорожного движения и находить верные решения. Образцовое выполнение служебных обязанностей служит укреплению доверия граждан к сотрудникам ДПС.

Ранета ЗИЯЕВА,
капитан.



ХИТРОУМНЫЙ ПЛАН НЕ УДАЛСЯ

В последние годы существенно расширяется взаимодействие нашей страны с соседними республиками. В результате увеличился товарооборот между государствами.

Активизирована деятельность органов внутренних дел и сотрудников таможенной службы, направленная на предотвращение незаконного оборота товаров и материальных ценностей, пресечение правонарушений и преступлений.

К примеру, житель города Истаравшан Согдийской области Таджикистана Ш. О. был задер-

жан на пограничном таможенном посту в Янгиабдском районе при попытке незаконного вывоза 25 миллионов 319 тысяч сумов. Жители махалли Дустий города Истаравшан Ё. Х. и Д. А. планировали провезти лекарственные средства без каких-либо подтверждающих документов на 76 миллионов сумов. Нарушители привлечены к ответственности.

В попытках обойти закон и установленные правила пересечения границы, некоторые придумывают хитроумные планы. Так, гражданин Таджикистана некто У. Д. приобретает за 3 тысячи долларов США коня у жителя махалли Синдоробод Сырдарьинской области Узбекистана. Новый владелец сговаривается с Б. Б. из махалли Хавотог Янгиабдского района. Согласно плану, последний должен был заявить в органы внутренних дел о том, что нашел бесхозного коня. После этого У. Д. планировал убедить стражей порядка, что это его конь, сорвавшийся с привязи и перешедший через границу.



Но затея не удалась. Сотрудники органов внутренних дел провели тщательное расследование, в результате которого многоступенчатый план не реализовался.

Алижон АБДУСАТТОРОВ,
соб. корр.

Джизакская область.



MA'NAVIYAT OYLIGI



XODIMALAR BELLASHGANDA

Toshkent shahar IIBda oylik doirasida xotin-qizlar o'rtasida «Zakovat» intellektual o'yini o'tkazildi.

Tadbirdan ko'zlangan maqsad – xodimalarning intellektual va professional bilim darajasini sinovdan o'tkazish, ma'naviy-axloqiy saviyasini muntazam ravishda oshirib borishga ishtiyoqini yanada kuchaytirish, shuningdek, o'z iqtidorini namoyish etish uchun yetarli shart-sharoit

yaratish hamda munosib rag'batlantirib borish orqali bilimga va kasbga ruhlantirishdan iborat.

Qizg'in bahslarga boy bilimlar bellashuvida 1-o'rin Bektemir tumani, 2-o'rin Yashnobod tumani, 3-o'rin Olmazor tumani IIOFMB xodimalariga nasib etdi.

G'oliblarga tegishli diplom hamda pul mukofotlari topshirildi.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.



SOHA FIDOYISI

KASBGA MEHR QO'YSA...

Halollik, fidoyilik, kasbga sadoqat – inson hayotining eng go'zal bezaklari. Bunday xislatlarga ega bo'lgan kishi ko'ngil osoyishtaligida umr kechiradi, el aro hurmat, obro' va e'tibor qozonadi. IIV Qorovul qo'shinlariga qarashli Qashqadaryo viloyatida joylashgan harbiy qism 2-batalyoni nazoratchilar vzvodi 3-toifali nazoratchisi, kichik serjant Guli Toshevaning xizmat faoliyati misolida bunga yaqqol amin bo'lish mumkin.

– Kichik serjant Guli Tosheva shaxsiy tarkib orasida ko'pchilikka o'rnak bo'la oladigan harbiy xizmatchilarimizdan biri, – deydi harbiy qism komandirining o'rinbosari, podpolkovnik Qahramon Mardonov. – U qonunchilikni ustuvor bilib, xizmatga doim mas'uliyat bilan yondashadi.

O'zining qat'iy hayotiy prinsiplariga ega



G.Tosheva yaqinda kasbga sodiqligini yana bir bor isbotladi. Jazoni ijro etish koloniyasiga uchrashuvga kelgan fuqaro M.F. hujjatlarida aniqlangan kamchilikni yashirish maqsadida unga 600 ming so'm pora taklif qildi. U esa bu taklifni

darhol rad etib, holat haqida zudlik bilan rahbariyatga xabar berdi. Natijada jinoyatning oldi olindi, holat yuzasidan fuqaro bilan profilaktik suhbat o'tkazilib, tegishli tartibda dalolatnoma rasmiylashtirildi.

Lavhamiz qahramoni uzoq yillik xizmat faoliyati davomida ustozlaridan o'rgangan bilim va ko'nikmalarini bugun kichik serjant Charos Bahromova kabi yosh harbiy xizmatchilarga o'rgatib kelayotganini ta'kidlash joiz.

– Inson o'z kasbiga mehr qo'ysagina, ishida unum va baraka bo'larkan, – deydi kichik serjant Guli Tosheva. – Men kasbimga sodiq holda, ona Vatanim tinchligini asrashdek sharafli vazifaga o'z hissamni qo'shib kelayotganimdan faxrlanaman.

Bugun halollikni shioriga aylantirgan qahramonimiz oilasi farovon, turmush o'rtog'i bilan 3 nafar farzandni tarbiyalab, voyaga yetkazmoqda. Bahromjon Toshkent tibbiyot akademiyasining 2-bosqich talabasi bo'lsa, Dilnuraxon va Boburjon maktab o'quvchilari.

Vadim TO'XTAYEV,
oddiy askar.

XAVFSIZ YO'NALISH

MAXSUS TADBIR DOIRASIDA

Ayni kunlarda IIV Transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta'minlash departamentining tegishli ko'rsatmasiga asosan, joylarda «Xavfsiz yo'nalish» maxsus tezkor-profilaktik tadbiri o'tkazilmoqda. Joriy yilning 1-may kuniga qadar davom etadigan mazkur tadbir doirasida Qashqadaryo viloyati TXTB «Dehqonobod» bekatida xavfsizlikni ta'minlash bo'linmasi shaxsiy tarkibi tomonidan ham muayyan ishlar olib borilyapti.



Tadbir davomida temiryo'l korxona va tashkilotlari, mahallalar, ta'lim muassasalarida targ'ibot uchrashuvlari o'tkazilyapti. Bu uchrashuvlarda temiryo'l obyektlari va ularga yaqin joylarda xavfsizlik talablariga rioya etish lozimligi uqtirilmogda, aksincha holatlarning og'ir oqibatlarini aniq misollar yordamida tushuntirilmogda.

Shu bilan birga, tadbir davomida bekatlar va fuqarolar o'tishi uchun mo'ljallangan joylarda harakat xavfsizligi qoidalari aks etgan bannerlar va kechki vaqtda yo'lovchilar hamda ishchilarga qulay bo'lishi uchun yoritkich chiroqlar o'rnatildi.

Umuman olganda, joriy yilning dastlabki 3 oyi mobaynida temir-

yo'llarda harakat xavfsizligini ta'minlash, jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olish, turli salbiy holatlar kelib chiqishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida mahallalarda 52 marta, o'quv muassasalarida 28 marta, temiryo'l korxona va tashkilotlarida 42 marta profilaktik tadbirlar o'tkazildi. 65 nafar fuqaro huquqbuzarlik sodir etgani aniqlanib, ularga nisbatan ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirilgan, 1 nafar fuqaroga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atildi. Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan tegishli tashkilotlarga taqdimnomalar kiritildi.

Amirxon JULANOV,
kapitan.

Qashqadaryo viloyati.



КАСБ ФИДОЙИЛАРИ

ЭНДИ НАВБАТ — «ЯШИЛ» ГА

Бўстон туманидаги «Пиллакор» маҳалла фуқаролар йиғинида катта лейтенант Асроржон Аҳмедовнинг профилактика инспектори сифатида фаолият юритаётганига бир йилдан ошди. Бу вақт мобайнида унинг маҳаллани жиноятдан холи ҳудудга айлантиришга қаратилган саъй-ҳаракатлари зое кетмади. Аслида, Асроржонга қўйилган вазифа — ҳудудни «қизил»дан «яшил» тоифага ўтказиш эди. Бир йил ичида профилактика инспектори вазифанинг деярли ярмини уддалади — маҳалла «сарик» тоифага ўтди.



Фидойи ходим жорий йил якунига қадар «сарик»ни «яшил»га айлантиришни мақсад қилган. Бунинг учун маҳалла мутасаддилари билан биргаликда хонадон-ма-хонадон юриб, вазиятни ўрганишга, муаммоларни аниқлаб, ўз вақтида ҳал этишга жиддий эътибор қаратмоқда.

Аҳолиси 3421 нафарни ташкил этадиган «Пиллакор» маҳалла фуқаролар

йиғини туман марказида жойлашгани учун ижтимоий-иқтисодий фаол ҳудуд саналади. Айни пайтда маҳалланинг 5 нафар фуқароси пробацация назоратида бўлса, 46 нафари профилактик ҳисобга олинган. Катта лейтенант А.Аҳмедов мулоқот жараёнида уларга ҳуқуқбузарликни такрорлаш жазони янада оғирлаштиришини, тўғри, ҳалол яшаш хотиржамлик гарови эканини

уқтиради. Унинг психологик тарғибот-ташвиқот суҳбатлари туфайли юқоридаги шахсларнинг биронтаси такрор ҳуқуқбузарликка йўл қўймади.

Жорий йилнинг биринчи чорагида маҳаллада биттадан «хавфсиз кўча» ва «хавфсиз йўлак» ташкил қилинди. Жумладан, Улуғбек кўчаси «хавфсиз кўча» мақомини олиб, кузатув камералари, йўл чироқлари ўрнатилди. 4 та кўп қаватли уйда эса «хавфсиз йўлак»лар вужудга келтирилди. Уларнинг ҳар биридаги кириш эшикларига кузатув камераси, домофон ва ташвиш тугмалари ўрнатилди.

Лавҳамиз қаҳрамонининг касбига бўлган меҳр-муҳаббати ота мерос. Унинг отаси Аброржон Аҳмедов 22 йил шу соҳада ҳалол хизмат қилган. Фарзанд ҳам ота изидан бориб, «маҳаллам, халқим, юртим учун фойдам тегсин» дейдиган эр йигит бўлиб улғайди. Ҳозирда у Бўстон туманидаги энг намунали профилактика инспектори сифатида эътироф этилмоқда. Бу мақомга изланувчанлиги, салоҳияти, қолаверса, касбига бўлган садоқати, муҳаббати туфайли эришди.

Нигорахон ТҲУХАМАНОВА,
ўз мухбиримиз.

Анджсон вилояти.

ИНСОН ҚАДРИ УЧУН

ОДАМЛАРНИНГ ИШОНЧИ
уларга ўз вақтида, сифатли ёрдам
берилишига боғлиқ

Самарқанд вилояти ИИБ Ташкилий бошқармаси Фуқароларнинг мурожаатлари билан ишлаш бўлимига йил бошидан буён 9 мингга яқин мурожаат келиб тушди.



— Жорий йилнинг уч ойи мобайнида мурожаатлар сони 3 фоизга ошди, — дейди бўлинма катта инспектори, капитан Азизжон Очилов. — Бизга мурожаат қилган одамларнинг ишончи уларга ўз вақтида, сифатли ёрдам бера олишимизга боғлиқлигини яхши тушунамиз.

Таҳлилларга кўра, 1500 дан зиёд аризалар мол-мулк ёки пул олиб қўйиш ва қайтариб бермаслик билан боғлиқ бўлди. 526 нафар мурожаатчи эса тергов ҳаракатларининг боришидан норозилигини баён қилган, 569 нафар шахс фирибгарлар қурбони

га айланган, уларнинг банк карталаридан пул маблағлари ечиб олинган.

Бир неча йил олдин вилоят ИИБ расмий веб-сайти ишга туширилиб, Facebook ижтимоий тармоғида фуқаролар мурожаат қилиши мумкин бўлган саҳифа рўйхатдан ўтказилди. Шунинг ўзида ижтимоий сўров ўтказиш учун анкета жойлаштирилди. Айни пайтда аҳоли вилоят ички ишлар органлари фаолиятини яхшилаш юзасидан ўз таклиф ва тавсияларини билдирмоқда.

Замира БОЛТАЕВА,
ўз мухбиримиз.
Самарқанд вилояти.

ХОРАЗМ ВИЛОЯТИ

ҚОНУНГА ИТОАТКОРЛИК ЗАРУР

Ҳазорасп тумани ИИБ ЖХХ Пробацация гуруҳи ходимлари маҳкумларнинг ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш, улар ўртасида ўтказиладиган тарбиявий-профилактик ишлар самарадорлигини оширишга алоҳида эътибор беришмоқда. Айниқса, маҳкумларнинг белгиланган қонун-қоидаларга тўлиқ риоя этиши доимий равишда ўрганиб бориляпти.

— Жорий йилнинг ўтган даврида 323 нафар маҳкум пробацация назорати остида бўлиб, уларнинг барчаси суд ҳукмида белгиланган жазоларни ўтаб келмоқда, — дейди Пробацация гуруҳи катта инспектори, майор Азамат Қурёзов. — Маҳкумлар билан мунтазам тарзда тарбиявий-профилактик тадбирлар олиб борилаётгани боис, уларнинг 144 нафари тузалиш йўлига ўтгани учун муддатидан илгари шартли равишда жазодан озод этилди.

Жазо муқаррарлигини таъминлаш, маҳкумлар онгида қонунга итоаткорлик ҳиссини уйғотиш мақсадида сайёр суд йиғилишлари ўтказиб келинмоқда. Суд жараёнларида жазони ўташ даврида белгиланган тартиб-қоидаларга риоя қилган, тузалиш йўлига ўтган шахсларни муд-

датидан илгари шартли равишда озод қилиш ёки жазони ўташдан қасддан бўйин товлаган, ўрнатилган тақиқ ва чекловларга риоя қилмаган айрим маҳкумларнинг жазо турларини оғирроқ жазога алмаштириш масалалари ҳам кўриб чиқилмоқда. Ўтган давр мобайнида мазкур талабларни бажармаган 2 нафар маҳкумнинг жазоси озодликдан маҳрум қилиш билан боғлиқ бўлган жазо турига алмаштирилди.

Пробацация гуруҳи ходимлари жиноят содир этиб, муқаррар жазодан яшириниб юрган кимсаларни аниқлаш ва қўлга олиш бўйича ўтказиладиган тадбирларда ҳам фаол қатнашмоқдалар. Масалан, яқинда бошқа соҳавий хизмат ходимлари билан ҳамкорликда ўтказилган тезкор тадбир давомида пробацация ҳисобиде турган қидирувдаги К.Б.



туман ҳудудида ушланиб, жазо муқаррарлиги таъминланди.

Хизмат ходимлари маҳкумлар томонидан қайта жиноят содир этилишининг олдини олиш мақсадида мунтазам ўрганиш ишларини олиб боришяпти. Хусусан, назоратдаги шахслардан 25 нафари жиноят содир этишга мойиллиги, 14 нафарининг жиноят содир этиш хавфи

юқори экани аниқланиб, улар билан профилактик тадбирлар амалга оширилди. Бу саъй-ҳаракатлар натижасида жорий йилнинг ўтган даврида пробацация гуруҳи ҳисобиде турган шахслар томонидан қайта жиноят содир этилишига йўл қўйилмади.

Худойберган ЖАББОРОВ,
ўз мухбиримиз.



**Ички ишлар органи ходими
тизим имижини оширишда
нималарга эътибор
қаратиши лозим?**



Беруний АЛИМОВ,
филология фанлари доктори,
журналист, таржимон

ТЎҒРИ МУЛОҚОТ ҚИЛА ОЛИШ ЗАРУР

Бугунги кунда ҳар бир соҳа янги тизимга ўтмоқда. Очиқлик, шаффофликнинг таъминланишига ҳаракат қилинмоқда. Шахс тушунчаси кенгроқ тушунилиб, инсонга олий қадрият сифатида қаралмоқда. Бу, ўз навбатида, мамлакатимизнинг халқаро майдондаги обрў-эътиборини юксалтиради.

Албатта, ҳозирги шиддатли тараққиёт асрида ички ишлар органларининг фаолиятини инновацион ёндашувлар, рақамли технологиялар ва илм-фан ютуқларига таянган ҳолда ташкил этиш мамлакатимизда ҳуқуқ тартиботни янада мустаҳкамлашда муҳим омил саналади.

Ички ишлар органларининг ҳар бир ходими жамоатчилик олдида чиқиш қилиш қоидаларини яхши ўрганиши, нутқ маданияти устида ишлаши, далиллаш техникасини амалиётда қўллай олишни билиши зарур.

Яна бир муҳим жиҳат шуки, можароли вазиятларда жамоатчилик ва оммавий ахборот воситалари билан тўғри мулоқот қила олиш ҳам тизим имижини оширишда катта аҳамиятга эга. Қолаверса, ички ишлар органи ходими вазиятни чуқур таҳлил этган ҳолда тезкор қарор қабул қилиш ҳамда стратегик режалаштириш кўникмаларини эгаллаган бўлиши, онлайн муҳитда масъулиятли ҳаракат қилишни ўзида шакллантира олиши эътиборга молиқдир.

Назаримда, буларнинг барчасида, аввало, билим ва кўникма, муомала маданиятини яхши эгаллаш талаб этилади.

MULOHAZA

«ДИҚ» YOKI HO'KIZNING SHOXI BOR

Murabbiylardan birining «Bokschilar mashqlar davomida va ringda his qilgan og'riqlari sabab bironing jismiga ozor berishdan cho'chiydigan bo'lib qoladi. Shu bois har qanday kelishmovchilikni qo'l kuchisiz, bosiqlik bilan hal qilishga intiladilar», degan so'zlari rostligiga o'zim bir necha bor guvoh bo'lganman.

Ammo mushaklari ustida ko'p va xo'p ishlaydiganlar orasida boshqalarga aziyat yetkazishni ayb bilmaydiganlar ham uchraydi. Ora-sira ijtimoiy tarmoqlarda ko'zimiz tushib qoladigan sportchilarga oid videotasvirlar yuqoridagi fikrimiz tasdig'idir. Ana shunday kuch topib, aql topmaganlar sirasiga Jizzax shahrining «Sangzor» mahallasida istiqomat qiluvchi U.I.ni ham qo'shish mumkin.

Mazkur shaxs bolalikdan sportning boks turi bilan shug'ullangan, tuman va viloyat miqyosida ba'zi yutuqlarni qo'lga kiritgan. Afsuski, u o'z ustida ishlab, yangi marralarni zabt etish o'rniga, yomonlik yo'lini tutdi. Oqibatda 2010-yili talonchilik qilgani uchun, oradan bir yil o'tgach, qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazgani hamda janjalni bartaraf etmoqchi bo'lgan ichki ishlar organi xodimiga qarshilik ko'rsatgani uchun sudlandi.

«Qahramon»imiz o'ziga o'xshagan bezorilar davrasida «Diq» nomi bilan tanilgan. Bunday laqabga loyiq ko'rilishining sababi mushtlashuvni «Diq» etib uraman, qulaysan», degan jumla bilan boshlashidir.

Oxirgi marta u Jizzax shahrining Mirzo Ulug'bek nomli mahallasidagi tungi klubda o'zini ko'rsatdi. Jumladan, U.I. notanish yigitni chaqirib, musiqa buyurtma qildi. Yigit klub xizmatchisi emasligini, bu yerga hordiq chiqarish uchun kelganligini bildirganida, uni haqoratlab, do'pposladi. Janjallashayotganlarni ajratmoqchi bo'lganlar ham mushtdan bebahra qolmadi. Jismoniy tayyorgarlikka ega sobiq bokschining zarbala-



ridan yigitlardan birining burni, boshqasining jag'iga shikast yetdi. Yana ikki kishi turli tan jarohati oldi. Mushtlashuv ichki ishlar organlari xodimlari zo'ravonni qo'lga olishi bilan nihoyalandi.

Sudda U.I. iloji boricha o'zini aybsiz ko'rsatishga harakat qildi. Biroq tungi klubdagi kuzatuv kameralari videotasvirlari hamda jabrlanuvchi va guvohlarning ko'rsatmalari gumon qilinuvchining yolg'on gapirganligiga isbot bo'ldi. Pirovardida, ayblanuvchi 2,5 yilga ozodlikdan mahrum qilindi.

E'tiborlisi, mazkur shaxs viloyatdagi sport federatsiyalaridan birida mas'ul lavozimda faoliyat ko'rsatgan.

Shu o'rinda bir rivoyat tafsilotini bayon etsak. Ilm sohibi qarshisidan chiqqan ho'kizni ko'rib, chetlanibdi. Holatni kuzatib turgan hangomatalablardan biri «Shunday donishmand odam ho'kizdan qo'rqsa-ya», deya mazaxlabdi va so'zlariga yarasha javob olibdi: «Ho'kizning shoxi, mening esa aqlim bor». Demoqchi bo'lganimiz, inson jismini qanchalar mukammallashtirmasin, tafakkurini ilm va odob bilan bezamasa, qilmishlari xunuk, oqibati ko'ngilsiz bo'lave-radi.

Alijon ABDUSATTOROV,
o'z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.

O'G'RILIK QO'L ISHI EMAS...



Nurota tumani «Orasoy» mahallasida yashovchi fuqaro Ichki ishlar bo'limiga ariza bilan murojaat qilib, 71 bosh qoramoldan iborat podasini o'tlatish uchun toqqa haydab, kech tushganda qo'raga qamayotgan paytda 4 tasi yo'qligini payqaganligini ma'lum qilgan.

Bir necha kundan keyin navbahorlik bir fuqaroning fermer xo'jaligi dalasidan yana 2 bosh qoramol o'g'irlangani bo'yicha xabar kelib tushdi.

Har ikki holat yuzasidan jinoyat ishi ochilib, olib borilgan tezkor-qidiruv tadbirlari natijasida mazkur jinoyatlarni Navbahor va Nurota tumanlarida yashovchi 4 nafar fuqaro sodir qilgani aniqlandi. Yo'qolgan mollarning aksari egalari qaytarildi, ba'zilar uchun esa yetkazilgan moddiy zarar qoplandi.

– To'g'risi, qoramollarim topilmasa kerak, deb o'ylagandim. Ustomon o'g'rilar uni yo so'yib yuborgan, yo sotgan

degan taxminda edim. Yo'q, barchasi topildi. Buning uchun ichki ishlar organlari xodimlariga minnatdorlik bildiraman, – deydi orasoylik cho'pon Olim Shoqulov.

«O'g'rilik qo'l ishi emas, vijdon illati» deb bejiz aytilmagan. Nafsig qul bo'lib, o'zgalarning moliga ko'z olaytirganlar kun kelib adolat bilan yuzlashadi. Qonun o'z so'zini aytadi. Shu o'rinda fuqarolardan chorva mollarni dalaga chiqarib, nazoratsiz qoldirmasliklarini, jinoyatga yo'l ochib bermasliklarini so'rab qolamiz.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.



ЗАКОВАТ САҲИФАСИ

ҚАТРА-ҚАТРА ЯХШИЛИК



Денгиз бўйига дам олишга келган сайёҳ кучли пўртана ўтиб кетганидан сўнг қирғоққа яқинлашди ва узоқда қумдан нималарнидир олиб, сувга отаётган болакайга кўзи тушди. Ҳалиги одам унга яқин келди ва бола-нинг ердан денгиз юлдузларини тераётганини кўрди.

Атроф бундай миттивойлар билан тўла эди. Гўёки соҳил бўйи бир неча километр масофага миллионлаб денгиз юлдузлари билан тўшалгандек.

– Нега уларни сувга отяпсан? – сўради сайёҳ.

– Агар улар эртага тонгга-ча қирғоқда қолиб кетса, сув орқага қайтиши билан нобуд бўлади, – жавоб қилди бола ўз машғулотини тўхтатмай.

– Бу ғирт тентаклик-ку! – таажжубланди сайёҳ. – Атроф-фингга бок, ахир улар жудаям кўп. Уларни қутқара олмайсан, бу ҳаракатларинг ҳеч нарсани ўзгартирмайди.

Бола навбатдаги денгиз юлдузини қўлига олиб, бир муддат ўйланиб қолди. Сўнгра уни денгизга улоқтириб, охишта деди:

– Йўқ, менинг ҳаракатларим кўп нарсани ўзгантиради... мана шу юлдуз учун.

Ҳаёт майда-чуйда саъй-ҳаракатлардан иборат. Бир вақтда кўп нарса қилиш имкони камдан-кам ҳолларда туғилади. Чинакам буюклик қатра-қатра яхшиликлар билан ўлчанади.

ДАРЁНИНГ ЧУҚУРЛИГИ



Бир куни тулки дарё қирғоғида турган туядан сўради:

– Дарё сувининг чуқурлиги қанча экан?

– Тиззагача, – жавоб қилибди туя.

Тулки дарёга тушди ва сув уни бутунлай кўмиб қўйгани боис шу захотиёқ чўка бошлади. У аранг бошини сувдан чиқарди ва дарёнинг ўртасидаги катта харсанг тошга чиқиб олди. Бироз ҳансираши босилгач, туяга қарата ғазаб билан:

– Сен менга дарёнинг чуқурлиги тиззагача демаганмидинг?! – дея бақирди.

Туя бунга жавобан:

– Тўғри, шундай дедим. Чунки сув ростдан ҳам тиззамгача келди-да, – деди.

Туя билан тулкининг бўйи орасида фарқ бор, албатта. Сиз ҳам ҳаётингизда бировдан маълумот ёки насиҳат олаётганингизда, кўп ҳолларда у сизга ўзи учун фойдаси теккан, тажрибасидан ўтган, ўзигагина мос ва муносиб бўлган нарсани тавсия қилишини унутманг, чунки бу сизга тўғри келмаслиги мумкин. Шунинг учун бошқаларнинг ўзига хос бўлган тажрибасини ўз муаммоингиз учун асосий ечим ёки қатъий ҳукм қилиб олманг!

КУЗАТУВЧАН БОЛАКАЙ




ўсади-ю, ерга тиккан экинларимизга эса эътибор, парвариш ва меҳнат керак?

– Болажоним, мана кўрдингми, қизиқувчан ва кузатувчан бўлганинг туфайли ўзинг учун янгилик яратдинг: демак, дунёда инсон учун зарур, қадри ва

аҳамиятли бўлган барча нарсалар биздан кўп куч, сабр ва саъй-ҳаракат талаб қилади, зарарли ва кераксиз нарсалар эса ўз-ўзидан юзага келиб, ривожланишда давом этади.

Гулчеҳра АЗИМОВА тайёрлади.

СКАНВОРД



САЛОМАТЛИК САБОҚЛАРИ

КУНЛАР ИСИГАНДА УЙҒОНАДИГАН КАСАЛЛИК

Кунлар исиши билан аҳоли, айниқса, болалар ўртасида ичбуруғ, яъни ўткир диарея кўпаяди. Касалликни ҳарорат таъсирида айний бошлаган егуликлар, сут маҳсулотлари ҳамда гигиена қоидаларига амал қилмаслик келтириб чиқаради. Худди шундай, ичбуруққа кўчада сотиладиган овқатлар ҳам сабаб бўлиши мумкин.

Касалликнинг олдини олиш учун қўлларни совунлаб ювиш, мева ва сабзавотларни яхшилаб чийиш, маҳсулотларнинг яроқлилиқ муддати-га эътибор қаратиш, емакларни музлаткичда сақлаш, иложи борица уйда овқатланмоқ зарур. Ичбуруғ белгиларига келадиган бўлсак, организмга вирус ва бактериялар тушгач, 2 соатдан 2 кунгача бўлган вақт оралиғида ҳолсизлик, кўнгил айниши, қусиш, ич кетиши, тана ҳарорати кўтарилиши, бош айланиши, қорин оғриши ва дам бўлиши каби симптомлар кузатилади.

Ўткир диарея бемор ҳолати ва организмга тушган микроб ёки вирус хусусиятига қараб, енгил, ўртача ёки оғир, баъзан типик бўлмаган шаклда кечиши мумкин.

Касалликни даволашда ҳар бир дақиқанинг аҳамияти катта. Яъни, беморга эрта ташхис қўйилиб, муолажа тезроқ бошланса, натижа самарали бўлади.

Бу даврда парҳезбop куён, товук, курка, енгил йогурт, творог, сув билан аралаштирилган лимон шарбати, олма, нок, наъматак, картошка, сули

ва гуруч истеъмол қилиш мумкин. Бироқ чўчқа, мол, ўрдак ва бошқа ёғли гўшт-



лар, сметаналар, дудланган колбаса, қаймоқ, сут, помидор, бодринг, карам, апельсин, банан, олхўри, ўрик, майиз ҳамда барча турдаги ёнғоқларни ейиш тавсия қилинмайди. Қаттиқ, қовурилган, ёғли, дудланган таомлардан воз кечиш, енгил ҳазм бўладиган ва ичакка ботмайдиган маҳсулотларни ейиш, етарли миқдорда суюқлик ичиш зарур.

Пишириш усулига келсак, таомлар қайнатилган ёки димланган бўлиши жоиз. Яхшиси, бўтқалар, пюрелар, буғда пиширилган котлетлар тайёрлаш керак. Рухсат этилган мевалардан тайёр-

ланган кисель ва желелар ҳам маъбул ечим саналади.

Ич кетганда овқат диарея интенсивлигидан, касалликнинг шакли ва босқичидан келиб чиқиб танланади. Табиийки, ич кетишининг дастлабки соатларида емакдан тийилган яхши. Фақат бироз ширин чой ва ҳар хил суюқликлар ичиш мумкин. Бундай ёндашув шикастланган ичак хужайраларини таъсирлантirmасдан озиқлантиришга хизмат қилади. Соғлиқдаги ўзгаришга мос тарзда озиқ-овқат

ҳажми оширилиб, рухсат этилган маҳсулотлар истеъмолига ўтилади. Ич кетиши пасайгандан сўнг аста-секин одатий рационга қайтилади.

Маълумки, бактерия ва вируслар ичак шиллиқ қавагини яллиғлайди ва улардан ажралган токсинлар қонга сўрилиб, бутун танани заҳарлайди. Агар сизда ичбуруғ белгилари пайдо бўлса, асло ўзбошимчалик билан дорилар қабул қилманг. Зудлик билан шифокорга мурожаат қилинг.

Воҳиджон ЖУМАЕВ,
Жиззах вилояти ИИБ
Тиббиёт бўлими
умумий амалиёт
шифокори.



МОҒОРЛАГАН НОН ХАВФЛИ

Кундалик ҳаётимизда, рўзғорда баъзан нон юзасида моғор пайдо бўла бошлаганини кўрамыз. Бундай вазиятда унинг моғорлаган жойини кесиб ташлаб, қолган қисмини истеъмол қилишда давом этамыз. Бу тўғрими? Яъни, моғорлаган нонни истеъмол қилиш соғлиқ учун хавфсизми?

Мутахассислар фикрича, нон юмшоқ ва ғовакли бўлгани боис моғор споралари кўз билан кўринганидан анча чуқурроққа кирган бўлиши мумкин. Шунинг учун ҳам моғорлаган нонни истеъмол қилиш тавсия этилмайди, у соғлиқ учун хавфли бўлиши мумкин.

Моғорнинг айрим турлари нафас олиш муаммолари ва аллергия реакцияларни келтириб чиқаради, энг ёмони, озиқ-овқатдан заҳарланишга олиб келади.

Шу ўринда алоҳида таъкидлаш жоиз: нон моғорнинг юқори қатламини олиб ташлаш орқали ейиш мумкин бўлмаган ягона маҳсулот эмас. Бу юмшоқ таркибга эга бўлган барча маҳсулотларга тааллуқлидир: консерва ва мураббolar, консерваланган сабзавотлар, мева ва пиширилган гўштлар. Бундай маҳсулотларни истеъмол қилишда уларнинг моғорламаганига эътибор қаратиш мақсадга мувофиқдир.

Фарҳод БОЙЗОҚОВ,
Наманган вилояти ИИБ Тиббиёт
бўлими поликлиникаси
гастроэнтеролог-шифокори.

ПРИВЫЧКИ ДЛЯ ЗДОРОВЬЯ ПЕЧЕНИ

1. Сбалансированное питание.

Употребляйте больше овощей, фруктов, зелени и продуктов с кислым вкусом. Ограничьте жирное, жареное и сладкое. Полезны нежирная термически обработанная рыба и растительные масла.

2. Отказ от вредных привычек.

3. Регулярная физическая активность.

Занимайтесь спортом не менее 3 часов в неделю, следите за весом и снижайте риск ожирения печени.



ЧЕТЫРЕ ОЧИЩАЮЩИХ СМУЗИ

— **Для здоровья кишечника:** стебель сельдерея, зеленое яблоко, зелень петрушки, долька лимона.

— **Для очищения печени:** свекла, зеленое яблоко, зелень петрушки, долька лимона.

— **Для укрепления иммунитета:** базилик, зеленое яблоко, кинза, долька лимона.

— **Для идеальной кожи:** морковь, персик, ложка куркумы, долька лимона.



ШАГИ К СНИЖЕНИЮ ХОЛЕСТЕРИНА

1. Ограничьте потребление трансжиров.

Под запретом чипсы, гамбургеры, фастфуд и магазинная выпечка, включая торты и пирожные. Эти продукты содержат трансжиры, которые повышают уровень «плохого» холестерина и снижают «хороший».

2. Следите за весом.

Избавление от лишнего веса способствует нормализации уровня холестерина.

3. Ведите активный образ жизни.

Достаточно уделять физической активности 2,5 часа в неделю (например, гулять по 30 минут в будни), чтобы увеличить «хороший» холестерин и уменьшить «плохой».

4. Отдавайте предпочтение клетчатке.

Овсянка, яблоки, чернослив, бобы и другие продукты, богатые грубыми во-

локнами, не только снижают холестерин, но и помогают контролировать аппетит.

5. Добавьте в рацион орехи.

Все виды орехов помогают снизить уровень «плохого» холестерина, но важно помнить об их высокой калорийности.

6. Снижайте уровень стресса.

Чем выше уровень стресса, тем выше показатели «плохого» холестерина. Освойте техники расслабления.

7. Используйте полезные специи.

Чеснок, черный перец, куркума, имбирь, кориандр и корица благотворно влияют на уровень холестерина.

8. Откажитесь от вредных привычек.

9. Чаще смейтесь.

Смех снижает уровень стресса и способствует здоровью сердца.





На конкурс

МНОГОЛЕТНЕЕ ТВОРЧЕСКОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО

С коллективом газеты «Postda-Ha postu» меня связывают годы творческого сотрудничества. На протяжении многих лет здесь публикуются мои материалы о непростых буднях стражей правопорядка.

Я работал в отделении агитации и пропаганды Управления ГАИ республики, в силу чего готовил статьи по проблемам обеспечения безопасности дорожного движения.

**полковник Закир Атаев**

Редактором газеты являлся полковник Закир Атаев. Журналистами издания были мастера пера Андрей Еськов, Владимир Болычев, Лев Оффенгеден. Лев потом мне рассказывал:

**подполковник Владимир Болычев**

– Не вылезали из командировок. Не знали какой псевдоним придумать, потому как в одном номере до пяти материалов выходило....

С Закиром Атаевым часто засиживались и обсуждали очередную статью, подготовленную на основе итогов рейда ГАИ. Я благодарен ему за возможность публикации глав моей детской книги, посвященной ПДД. Редактировать материал помогала корреспондент журнала «Qalqon–Щит» Лейла Шахназарова.

Результативно взаимодействовал с изданием и в период, когда ее возглавлял неутомимый, энергичный полковник Азиз Эрназаров. Раньше мы работали с ним в отделении УГАИ. Он готовил для республиканского

телевидения передачи. У него это здорово получалось. Он был постоянным ведущим телевикторины «Светофор».

В это время много общался с заместителем редактора газеты подполковником Александром Воргудяевым. Он был светлым человеком. Я слушал его с огромным интересом.

Особенно подружился с Георгием Петросяном. Каждый раз, разворачивая очередной номер, восхищался, читая его статьи, многие из которых позже были отмечены на творческих конкурсах.

**подполковник Александр Воргудяев**

Сотрудники редакции помогли в выпуске книги об истории ОВД «На службе народу Узбекистана». Работа над ней продолжалась длительное время. Это был кропотливый труд.

**Георгий Петросян**

Материалы приходилось собирать по всем службам. Во время их подготовки активную редакторскую помощь мне оказал тогда еще сотрудник Академии МВД, ныне специальный корреспондент газеты «Postda-Ha postu» Радик Тумпаров.

Находясь в командировке в Андижанской области, я

**полковник Азиз Эрназаров**

близко познакомился собственным корреспондентом газеты Борисом Клейманом. Он увлеченно рассказывал историю города Андижана. Мы встретились с руководством УВД, председателем Совета ветеранов. Присутствовали на торжественном

**Борис Клейман**

мероприятии в колледже. А на прощание сделали фото у памятного мемориала.

Взаимодействие Совета ветеранов и Объединенной редакции МВД укрепляется. Немалая заслуга в этом нынешнего руководителя редакции полковника Бернары Садиковой. Практически в каждом номере газеты, журнала публикуются очерки о представителях старшего поколения, многие годы отдавших делу укрепления правопорядка, обеспечения общественной безопасности.

В преддверии 95-летия издания хочу поздравить со славной датой коллектив Объединенной редакции, пожелать дальнейших творческих успехов!

Михаил ТАТАРНИКОВ,
подполковник в отставке,
член Совета ветеранов
МВД Узбекистана.

МУНАЖЖИМЛАР БАШОРАТИ

(21 – 27 апрель)

Қўй. Хафта боши бироз оғир кечади. Ўзаро тушунмовчилик ва муроасага келмаслик атрофдагилар билан муносабатларга салбий таъсир кўрсатиши мумкин. Хафтанинг иккинчи ярмида кайфиятингиз кўтарилиб, қўл урган ишларингиз осон ва энгил ҳал бўла бошлайди.



Бузоқ. Бу даврда иш ва оилада муайян муваффақиятлар кузатилиши кутилмоқда. Яқинларингиз билан мулоқот қилишда хушмуомалаликни унутманг, акс ҳолда ноўрин тортишувлар келиб чиқади. Салбий ҳиссиётлар саломатликка ёмон таъсир кўрсатиши мумкин.



Эгизаклар. Ушбу ҳафта сиздан катта масъулият талаб этади. Аммо бир неча ишни бир-варакайига бажаришга уринманг. Барчасини режа билан, аввало, энг муҳимларидан бошлаб амалга ошириш мақсадга мувофиқ. Хафтанинг охирида сизни муваффақиятсизликлар таъқиб этиши мумкин.



Қисқичбақа. Бу даврда саломатликка жиддий эътибор қаратиб, арзимас нарсаларга асабийлашманг. Сизга босим ўтказаятган кишилар билан муносабатларни чеклашга ҳаракат қилинг. Пайшанба куни яхши хабар оласиз. Ўзингизни қийнаётган масалалар бўйича давлат хизматларига мурожаат қилинг.



Арслон. Сарф-харажатларни яқинларингиз билан маслаҳат қилган ҳолда амалга оширинг. Лекин шахсий ҳаётга боғлиқ қарорларни мустақил қабул қилишга ҳаракат қилинг. Бу ҳафта вақтинча ишни ва оилавий ташвишларни бир четга суриб, сеvimли машғулотларингиз учун вақт ажратинг.



Паризод. Бу вақтда молиявий масалаларда тежамкор бўлиб, кутилмаган харидлардан ўзингизни тийганингиз маъқул. Анчадан бери умид боғлаган ниятингиз амалга ошади. Режадаги барча ишлар осон ва энгил ҳал бўлиб, ҳамкасблар билан ўзаро муносабатлар мустаҳкамланади.



Тарози. Хафтанинг илк кунлари ишда ютуқларга эришишни ваъда қилади, айти шу даврда ҳатто бажарилиши энг қийин бўлган вазифаларни ҳам ҳеч иккиланмай амалга ошириш тавсия этилади. Хафтанинг иккинчи ярми янги ғояларни рўёбга чиқариш, йирик харидлар қилиш учун қулайдир.



Чаён. Хасадгўй инсонларнинг хийла-найрангидан эҳтиёт бўлинг. Ҳафта бошида бошлиғингиз ҳақида фикр билдиришдан тийилинг, ишга кечикмасликка ҳаракат қилинг. Пайшанба ва жума куни ташкил этилган дўстлар билан учрашув кўнгилсизликларни унутишга ёрдам беради.



Ўқотар. Зукко ва гапга усталигингиз кўп инсонларнинг эътиборини жалб қилади, бироқ бу даврда кимнингдир кўнгилни огритиб қўймаслик учун зинҳор шахсиятга ўтманг. Ҳафта ўртасида кичик келишмовчиликлар юзага келиши мумкин. Ҳордиқ кунлари уй-хўжалик юмушлари билан шуғулланинг, чунки қайси ишга қўл урманг, у осон ва энгил битади.



Тоғ эчкиси. Бу даврда сизга нимадир етишмаётгандек бўлиб, бу ҳақдаги ўйлар ҳаёлингизни банд қилиб қўяди. Бу ҳолат чоршанбадан сўнг ўтиб кетади ва сиз ўзгача руҳий юксалишни ҳис этасиз, ўз мақсадларингизни аниқ белгилаб, ушбу йўналишда жадал ҳаракатга кечасиз. Дам олиш кунлари фойдали харидларни амалга оширишингиз мумкин.



Қовға. Ҳафта боши оғир ва муаммоли кечади. Бу кунларда бепарволик туфайли хатога йўл қўйишингиз, атрофдагилар билан зиддиятли вазиятлар юзага келиши, иш самарадорлиги пасайиши мумкин. Имкон қадар раҳбарият ва ҳамкасблар билан низога бормасликка ҳаракат қилинг.



Балиқ. Душанбадан чоршанбагача хизматда юксалишга ёки бизнесни ривожлантиришга қаратилган ишларни белгилаб олганингиз маъқул. Бу даврда атрофдагилар билан имкон қадар «чиройли» муомала қилинг, ҳамкасблар ва иш ҳамкорлари билан баҳс-мунозарага борманг. Шанба ва якшанба кунларини тоза ҳавода сайр қилиб ёки фаол ҳаракатда ўтказинг.



Хоразмнинг милoddan avvalgi V–IV asrlarga oid qadimiy qal'alariidan biri b'ulgan Qalajiqqal'a Bog'ot tumani markazidan taxminan 8 kilometr janubi-g'arbda, Qoraqum etagida, «Qalajiqqal'a» mahallasi hududida joylashgan. Mazkur majmu'a Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 4 oktyabrdaqi qarori bilan moddiy-madaniy merosning k'uchmas mulk ob'ektlari milliy r'yxatiga kiritilgan va davlat muhofazasiga olingan. Shuningdek, u turizm salohiyati yuqori b'ulgan madaniy meros ob'ekti sanaladi.

Qal'a devorining balandligi 14 metr, kengligi esa 2,5 metrni tashkil qiladi. Tashqi devori uch qatlamdan iborat b'ulib, devorning tepasida qal'a mudofaasini boshqaruvchi шахs uchun maxsus supacha yasalgan. Devorlar ustida душмандан химояланиш мақсадида камондан ўқ отиш uchun maxsus тешиklar mavjud b'ulib, ular ayni kungacha saqlanib qolgan.

Qadimda Bуюk ipak й'ули b'uylab ketaётган йирик karvonlar Qalajiqqal'ada biron mudдат k'unim topib, xordiq chiqargan. Savdo-sotiq qilingan. Yillar ўtib qal'a qarovsiz xolga kelib qolgan.

Vatanimiz mustaqillikka eriшgach, xaroba xolda ёtган bunday qadamjolar rekonstruktsiya qilib, keng k'ulamdaqi bunёдkorlik ishlari olib borildi. Shular qatori qadimiy Qalajiqqal'a ham

ҚАЛАЖИҚҚАЛЪА – ШИФОБАХШ МАСКАН

obod maskanga aйландi. Bu erda milliy uslubdaqi uyлар qurildi, tuyda сайr qiliш, meхmonхonada dam олиш, restoranда ovqatlaniш, kamondan ўq отиш, soғlomлаштириш markazida davolaniш, konsert dasturlarini tomosha qiliш, k'uldan baliq ovлаш imkoniyati yaratildi. Shuningdek, bolalar uchun k'unigilochar attraktsionlar, kattalar uchun ch'miliш хавзалари, oilaviy dam олиш uchun villalar tashkil qilingdi. Bunday sharoitlar natijasida, ayniqsa, keyingi vaqtda Qalajiqqal'aga mahalliy va xorijiy сайёхларning tashrifi ortib bormoqda.

«Qalajiqqal'a» majmuasi hududida Sh'rk'ul (Tuzli k'ul) mavjud b'ulib, bu shifobaxsh maskanga odamlar azaldan davolaniш uchun keliшgan. K'ul suvini tashkil etuvchi foydali elementlar yurak-qon tomir tizimining faoliyatini yaxshilashga va qon aйлaniшini barqarorлаштиришga ёrдам беради. Shuningdek, terini mikroblardan tozalaydi, asabни tinчlantiradi, b'ugimlarda va terida sodir b'uladigan salbiy jaraёнларни sekinлаштиradi va davolaydi, buyraklar faoliyatini yaxshilaydi. Sh'rk'ul atrofiga еrtalab va шom paytida 15–25 daqiqa yurib, toza хаводан nafas олиш qalqonsimon bez, yuqori nafas й'ullari kasalliklarini davolashda ham juda foydali экани isbotlangan.

Худойберган ЖАББОРОВ,
ўз мухбиримиз.

Хоразм вилояти.



MUASSIS:

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir

polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir
o'rinbosarlari

podpolkovnik Azizjon FAYZIYEV
mayor Aziza BOHODIROVA

Navbatchilar

Kamol OLLOYOROV
Radik TUMPAROV

Mas'ul kotib

Erkin SATTOROV

Sahifalovchilar

Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbir

Abu KENJAYEV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Obuna masalalari bo'yicha:

71-231-38-74;
97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz

E-mail: info@postda.uz

Tahririyat hisob raqami
h/r 23402000300100001010.

Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot
va moliya vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v
470010860262877031101179001
STIR 200637499.

«Kolorpak» MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi 1^a-uy.

Gazeta O'zbekiston matbuot va
axborot agentligi tomonidan
2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam
bilan ro'yxatga olingan.
Buyurtma №1006.

Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma
taboq. 45602 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:
Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

**MANZILIMIZ: 100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk ko'chasi 9-uy.**

Tahririyatga kelgan qo'lyozma va suratlar egasiga qaytarilmaydi. Nashrimizdan ko'chirib bosilganda manba ko'rsatilishi shart. Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

